



JADIDLAR



ABDULLA
Avloniy

YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI



Jadidlar

**ABDULLA
AVLONIY**

YOSHLAR NASHRIYOT UYI
Toshkent-2022

UO'K 821.512.133.09-1

KBK 83.3(50')

O - 52

Olim, Oltinbek

Jadidlar. Abdulla Avloniy [Matn]: risola./Olim Oltinbek. —
Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. — 156 b.

Loyiha rahbari:

Alisher Sa'dullayev

Tuzuvchi:

Olim Oltinbek,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Mas'ul muharrir:

Bahodir Karimov,

filologiya fanlari doktori, professor

Ijodiy guruh: **Qandil Boboqulov, Mehrinoz Abbosova**

Abdulla Avloniy — Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yirik vakili. Bu davr adabiyotining biror-bir qirrasi yo'qki, Avloniy ijodida bo'y ko'rsatmagan bo'lsa: millatni uyg'otishga va milliy ozodlikka chaqiruvchi she'rlarini deysizmi, teatr sohasidagi faoliyatini hamda dramatik asarlarini sanaysizmi, yangi avlod tarbiyasiga bag'ishlangan pedagogik asarlarini aytasizmi, milliy matbuotni oyoqqa turg'izishdagi sa'y-harakatlari yoxud shu matbuot sahifalarida bosilgan publisistik maqolalarini olasizmi — bularning barchasi bizga Abdulla Avloniy shaxsiyatini millat taraqqiyoti yo'lida fidoyilarcha xizmat qilgan ulkan mutafakkir sifatida namoyon etadi. Ushbu risolada shoir ijodining mana shunday muhim qirralarini qamrab olishga harakat qilindi. Risola keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

© O.Oltinbek,

ISBN 978-9943-6682-1-8

© Yoshlar nashriyot uyi, 2022



Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir", degan soʻzlari har bir maktab binosida yozib qoʻyilishi shart.

Shavkat Mirziyoyev
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti



ADIB HAYOTI

Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida dunyoga keldi. Otasi Miravlon aka mayda hunarmandlik — to‘quvchilik bilan shug‘ullangan. Piyonbozorda (hozirgi Navoiy teatri maydoni), Yarmarka bozorida (hozirgi San‘at muzeyi atrofi) bo‘z va chit bilan savdo qilardi. “Onamning oti Fotimadir” deb yozadi adib o‘z tarjimai holida.

Abdulla 7 yoshdan O‘qchidagi eski maktabda Akramxon domlada savod chiqardi. 1890-yilda shu mahalladagi madrasaga o‘tdi. So‘ng Shayxontohurdagi Abdumalikboy madrasasida Mulla Umar Oxundda tahsil ko‘rdi. Ammo tirikchilikning og‘irlashuvi o‘qishga imkon bermaydi. “1891-yildan boshlab, faqat qish kunlarida o‘qub, boshqa fasllarda



mardikor ishladim”, — deb yozadi Avloniy. Ko‘p o‘tmay bu ham barham topdi. U butunlay ishga sho‘ng‘ib ketdi. O‘zi aytganidek, “binokor”likni o‘rgandi, “g‘isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik ishlari” bilan mashg‘ul bo‘ldi.

1900-yilda Avloniy toshkentlik savdogar bir xonadonning Salomatxon degan qiziga uylanadi. Shu yili otasi vafot etadi.

1904-yilda Avloniy Mirobodda usuli jadid maktabi ochadi.

1907-yilda o‘z hovlisida “Shuhrat” gazetasi chiqara boshladi. Gazetaning yo‘li ayon bo‘lishi bilan do‘stidan dushmani ko‘payadi. Natijada, **10-soni chiqib bekildi.** Redaksiya asbob-ashyolari, qog‘ozlar va materiallar hammasi musodara qilindi. Lekin Avloniy bo‘sh kelmadi. **A. Bektemirov nomiga ruxsat olib “Osiyo”ni chiqara boshladi.** Bu gazetalar o‘zbek milliy matbuotining dastlabki namunalari bo‘lishi bilan ham muhim edi.

1908-yilda Avloniyning Miroboddagi maktabi yopildi. Buning sabablari ko'p bo'lishi kerak. Avloniy, nazarimizda, o'z tarjimai holidan shulardan bittasini tilga oladi: *"Maktabimda yer, odamlar, tog'-toshlar, daryo, osmon haqinda suhbatlar o'tkazmoqqa harakat qilganimni Mirobod johil kishilari bilishib, meni kofir bo'lding, deb, maktabimni yopdilar..."*¹

Adib **1909-yilda Degrez mahallasida yana maktab ochadi.** Avloniy dars berish jarayonida ochilayotgan yangi usuldagi maktablar uchun har jihatdan qulay bo'lgan ko'plab darsliklar yaratish zaruriyatini his qiladi. Negaki, yangi maktabning afzalligini shunchaki targ'ib qilish, o'z o'quvchilari misolida ko'rsatish hali kifoya emas edi. Yangi o'quv tizimining yoyilishi uchun uning prinsiplaridan kelib chiqib yozilgan darsliklar ham kerak edi.

¹ Qarang: A. Boboxonov, M. Maxsumov. Abdulla Avloniy. Pedagogik faoliyati. — T.: O'qituvchi, 1966. 43-bet.

Avloniy yozadi: *“Bizim Turkiston makotibi islomiyasinda avvaldan oxira qadar ta’lim o’linajak kitoblar: “Sabot ul-ojizin”, “Fuzuliy”, “Navoiy”, “Xo’ja Hofiz”, “Bedil”, “Maslak ul-muttaqin”lar kabi she’r kitoblari o’ldig’i jumlaning ma’lumidir. Bu kitoblarning ba’zilari e’tiqod va amaliyoti islomga taalluq mushkul masalalardan iborat o’lg’onlaridin hamda aksarlari forsiy tilda yozilg’onlari uchun yosh bolalarning onlardan istifodalari, bir narsa anglamoqlari imkon xorijinda edi”*².

1909-yilda **“Jamiyati xayriya” ochdi** va mahalliy xalq bolalarining o’qib bilim olishi uchun pul yig’ib, maktablarga tarqatdi.

1913-yilning oxirida **“Turon” jamiyati maydonga keldi**. Truppaning g’oyaviy-badiiy rahbari Avloniy edi. Jamoat qoshida teatr truppassi tuzildi. **Avloniy truppassi sahnalashtirgan birinchi asar Behbudiyning “Padarkush”i bo’ldi.**

² Abdulla Avloniy. Adabiyot yoxud milliy she’rlar, ifodayi maxsusa, 1-juz, 1-tab’, Ilyin litogr. 1–3-betlar.



1914-yilning 26-dekabrida truppa “Turkiston” nomi bilan Farg‘ona vodiysi bo‘ylab safarga chiqdi, bir qator shaharlarda gastrol-da bo‘ldi. Agar siz o‘sha yillari chiqib turgan vaqtli matbuot sahifalariga ko‘z tashlasangiz truppaning Qo‘qon (1915-yil 7-yanvar), Namangan (21–24-yanvar), O‘sh (29-yanvar) da qo‘ygan spektakllari va ularda Avloniyning faol ishtiroki, xususan, ijrochilik mahoratiga oid ehtiros bilan yozilgan maqolalarga duch kelasiz.

1914–1915-yillarda advokat Ubaydulla Xo‘jayev bilan “Sadoyi Turkiston” gazetasida hamkorlik qiladi. Gazetadagi she‘r va maqolalarning aksariyati Avloniy qalamiga mansub. Bu hol uning tahririyatdagi mavqe‘-e‘tiborining ancha baland bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Avloniy 1917-yil Fevral voqealaridan keyin “Yashasin xalq jumhuriyati!” shiori ostida “Turon” gazetasini chiqardi. Gaze-

ta o'z maslak-maqсадini "Musulmonlar orasida ko'p yillardan beri davom o'lan umumg'a zo'rlik, bid'at va odatlarini bitirmek, kelajakda bo'ladurg'on jumhuriy idoraga xalqni tayyorlamoq" deb e'lon qildi. Biroq gazeta juda katta qiyinchiliklar bilan dunyo yuzini ko'radi... Gazeta boykot qilindi. Bu hodisa katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Avloniy gazetadan olib tashlangach, muharrirlikka Mulla Husayn o'g'li, tayinlandi. Shunda ham Avloniy gazetadan uzilib ketmadi. Unga yordam berdi.

Fevral inqilobidan so'ng voqealar qizg'in va shiddatli kechdi. Siyosiy partiyalar jonlandi. Avloniyning "Turon" jamiyati ham bu voqealar ta'siridan chetda qolmadi.

Avloniyning sovetlarga va ular orqali bolsheviklarga yaqinlashishi 1917-yilning iyuniga to'g'ri keladi. Jumladan, 6-iyunda Toshkent ishchi va soldat deputatlari soveti qaroriga ko'ra "Eski shahar oziq-ovqat komissiyasi a'zosi", 20-noyabrdan esa "Rusiyaning

boshqa viloyat va guberniyalariga Sirdaryo viloyatidan yuboriladigan eng zarur oziq-ovqat mahsulotlarini ushlab qolish va Eski shahar oziq-ovqat komitetiga ma'lum qilish huquqi bilan nazorat etuvchi vakil" qilib tayinlanadi.

Avloniy 1917-yilda o'qituvchilik ishlari bilan shug'llanishga ham imkon topdi. Shoirning arxivida saqlangan pasportida uning shu yili 31-iyun va 3-avgust kunlari Qozonda "Bolgar" mehmonxonasida yashaganligi qayd qilingan. Iyunda nima munosabat bilan borгани noma'lum, lekin 1-avgustda Qozonda Butunrusiya musulmon o'qituvchilarining II syezdi ochilgan va Avloniy unda vakil edi. Shoir 1917-yilda mahalliy muallimlar o'rtasida siyosiy ishlar olib boruvchi "O'qituvchilar soyuzi"ni tuzgan edi...

1919-yilning iyunida Avloniy RSFSR hukumatining topshirig'i bilan Afg'onistonga boradi. 1919-yilning 28-sentabridan 1920-yilning 20-iyuligacha Hirotda bosh konsul bo'lib turadi.

Avloniy 1920-yilda sog'lig'i yomonlashgani tufayli Afg'onistondan chaqirib olinadi va Turkbyuroning madaniyat bo'limiga boshliq qilib tayinlanadi. U shu yillari "Kasabachilik harakati" jurnalining muharriri "Qizil bayroq" gazetasining tahrir hay'ati a'zosi sifatida ish olib boradi.

1921-yildan maorif sohasiga o'tadi.

O'sha yili Toshkentdagi o'lka bilim yurtida, 1923-yilda Toshkent xotin-qizlar bilim yurtida mudir, 1924-yilda harbiy maktabda o'qituvchilik qiladi.

1925—1930-yillarda O'rta Osiyo Kommunistik univertiteti (SAKU), O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi maktabi (SAVKSXSH)da, O'rta Osiyo davlat universiteti (SAGU)da dars beradi. Pedagogika fakultetining til va adabiyot kafedراسi professori, so'ng mudiri bo'lib ishlaydi.

Avloniy 1927-yilda "**Mehnat qahramoni**" unvoni bilan taqdirlandi. 1930-yilda

unga **“O‘zbekiston xalq maorifi zarbdori”** faxriy unvoni berildi.

Abdulla Avloniy **1934-yil 25-avgustda vafot etdi.**

Alloma adib hayoti va ijodiga san‘at ahli e‘tibor berdi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining “Boqiy dunyo” she‘riy roman va O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malikning “Qaldirg‘och” qissalarida Avloniyning badiiy adabiyotdagi obrazlari maydonga keldi.

Istiqlol yillarida Abdulla Avloniy hayoti va ijodini o‘rganish, asarlarni qayta nashr qilish ishlari jadallashdi. Adiblar xiyobonida adibga yodgorlik o‘rnatildi. Kino san‘ati ijodkorlari “Avloniy” badiiy filmini suratga olib, xalqimizga namoyish qilishdi.

2020-yil Abdulla Avloniy “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlandi.

IJODI





Avloniy “1894-yildan boshlab she’r yo-zishga tutingan” bo’lsa-da, u she’rlar bizgacha yetib kelmagan. Shoirning ilk she’rlari dastlab 1905-yildan keyin dunyo yuzini ko’rgan milliy gazetalarimizda chop

etilgan. Keyinchalik Avloniy bu she’rlarini o’zining “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” to’plamlariga kiritdi.

SHE’RLARI HAQIDA. Shoirning “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” nomli to’rt qismdan iborat she’riy to’plamlari 1909–1917-yillar oralig’ida alohida-alohida bir necha marotaba nashr qilingan. Shu-

ningdek, o'sha davr vaqtli matbuoti sahifalarida ham shoir she'rlarini ko'plab uchratamiz. Bu she'rlarning deyarli hammasi mazkur to'plamlarga kiritilgan. Aksariyati shoirning 1905-yildan keyingi ijodiga mansub bo'lib, milliy-ijtimoiy xarakterdadir. Buning sababi shundaki, 1905-yildan keyin she'riyatning o'z masalalari paydo bo'ldi. Vatan va millat dardini anglashga urinish sezila boshladi. Avloniyda shunday shiornamo satrlarga duch kelamiz:

Ayo, ey sohibi urfon! Vatan bog'inda
faryod et,

Otib tashla arodin eski odatlarni
barbod et.

Maorif-la funun tahsilina qil
rahnamolig' san,

Qorong'uda qol(g)an millatni nuri ilma
irshod et.

Vatan mehri agar bo'lsa — dilingda
ishq savdosi,

Otil nuri maorifga, o'zingni misli

Farhod et!... —

deb maorifga muhabbat e'lon qiladi.

Har bir inson o'z erki bilan inson bo'lganidek, har bir davlat ham o'zining mustaqilligi, ozodligi bilan to'laqonli davlatdir. Jadid bobolarimiz bunday davlatni sog'inib yashab o'tdilar. Shuning uchun ham ular ijodida istibdoddan qonga to'lgan dil nolalarini va milliy ozodlikni sog'ingan qalb sadolarini eshitish mumkin. Zero, Milliy uyg'onish deb nomlangan adabiyotning bosh g'oyasi ham shu edi. Bu adabiyotning yirik siymolaridan biri Abdulla Avloniydir.

Avloniyning **“Taajjublik hollar”** nomli she'rida shunday so'zlarga duch kelamiz:

Fano bir hola qolmish barcha

avlodi Vatan, yo Hu,

Anosidin ayilgan qush kibi

beixtiyor o'lmish...

*Na, millat, yodi moziying vor,
na istiqboling ummidi,
Vujuding panjayi vahshat ichinda
tor-u mor o'lmish.*

Darhaqiqat, Avloniy juda katta shijoat va shiddat bilan ijod qilgan o'tgan asrning 10-yillaridagi ahvol xuddi shunday edi. Uning nazarida, yo'qlik (fano) tomon ketayotgan Vatanning yangi avlodi xuddi onasidan ajratib olingan bandi polaponlar kabi erkidan mahrum. Bu avlodda o'tmishning yodi, kelajakning umidi yo'q, chunki uning vujudi vahshiylik panjalari ichida burda-burda qilingan.

Bunday ahvolga tushishiga millatning o'zi ham aybdor: chunki u ilm-u funundan yuz o'girdi, jaholatni o'ziga yor deb bildi, bunday g'aflat uyqusida yotib, do'st bilan dushmani farqiga bormadi, oqibatda esa, inqirozga yuz tutdi:

Qani avvaldagi ilming, funundin
e'tiroz etting,
Jaholat yori bo'lding, oshnolardin
aroz etting,
Bilib do'stingni dushman, dushmaningni
sarfaroz etting,
Kirib g'aflatni xobig'a, o'zingni
inqiroz etting,
Ko'zing och, yotma, g'aflatdan
o'son, millat, o'son, millat,
Topar san birla avloding
omon, millat, omon, millat...

Chunki ko'zini ochmasa, uyg'onmasa bo'lmaydi endi. Bu g'aflatda har narsani boy berdi: yurt xarobaga aylandi, "hamsoya" si uni yana buzish — vayronaga aylantirish tadbiri bilan mashg'ul:

Xarobotxonada yotsang, bizim-chun
kim qilur ta'mir,
Buzulsun, qadri ketsun, deb qilur
hamsoyamiz tadbir...

She'rlaridan birida "Falak bizni nalar qildi?" deya savol qo'yadi va:

Biza g'amxona qildi bu

Vatan tufrog'ini holo,

Bo'laklarga maishat yo'llarin

osona do'ndurdi, —

deya, Vatan tuprog'i o'z egalari uchun g'amxona, boshqalar uchun esa rohat-farog'at maskaniga aylanganidan shikoyat qiladi.

Mumtoz she'riyatimizda oshiq, yor va ag'yor uchligi mavjud. Jadid adabiyotiga kelib, bu tushunchalar yangicha mazmun kasb etgan. Ya'ni, oshiq — Vatan va millat qayg'usi bilan yashayotgan inson, yor — millat, ag'yor — shu ikkisi orasidagi dushman. Avloniy she'riyatida ko'p hollarda oshiq — bulbul, yor — gul (ya'ni millat), ag'yor esa xor (tikan) obrazlarini ifodalab keladi. Shoir "**Ta'rifi gul**" she'rida gul obrazi orqali mustabid tuzum zulmida ezilayotgan millatning ahvolini ko'rsatib beradi:

Subhidamda yuzlarindan mavj uran
shabnam emas,
Xor zulmindin to'kar ko'z yoshini
durdona gul.

Kimki hamdam bo'lsa noqobil bila,
zahmat chekar,
Bemuruvvat xor alindin har taraf
to'lg'ona gul.

Gar sabo tebratsa gulni, xush isi
nevchun chiqar,

Bag'riga botgan tikonlardan kelur
afg'ona gul.

Naylasun bechora gul, botmish
vujudiga tikon,

Zahmiga marham uchun
yaprog'iga chulg'ona gul.

Gul tepasiga kelib uning holatini anglatmoqchi bo'lgan Bulbul esa umidsizlikka tutgan, chunki uning faryodi Gulga yetib bormaydi — u zolim qafas ichra:

Kamoli ya'sidan, bekaslig'indan
oh-zor aylar,
Umid andin uzub, ummidi g'amg'a
yor o'lur bulbul...
Kecha-kunduz qafasda "Oh, gul"
deb aylayur faryod,
Omon bermas anga zolim qafas,
ozor o'lur bulbul.

Bu Bulbul — o'z dardini millati qulog'iga oshkor aytolmayotgan avloniylar obrazi. Chunki ularning ovozi bo'g'ilgan, xalqiga o'zligini tanitish, uni uyg'otish, taraqqiyotga boshlash yo'llari to'silgan edi. Shunga qaramasdan, jadid shoirlarimiz harakatni to'xtatishmadi: ularning maktab-maorif ishlariga qatishishlari, matbuotni oyoqqa turg'izishlari, teatrni yo'lga qo'yishlari ortida millatga o'zligini anglatish, milliy istiqlol va unga erishishga katta umid turar edi. Quyidagi satrlar mana shunday xulosa chiqarishimizga asos bo'ladi:

*Kelur ulfat, adovat o'rtadin qalqur —
ketar bir kun,
Qaro kunlar ketib, o'rnig'a ravshanlik
yetar bir kun,
Adolat bog'ida gulhoyi tarbiyat
bitar bir kun,
Ochib g'uncha dahonin shodlig' izhor
etar bir kun,
O'lur olam guliston, qayg'u-kulfatlar
yotar bir kun,
Gulobi hurriyat atri musaffosin
otar bir kun,
Dilim, g'am chekma ko'b, bir kun kelur
bedor o'lur olam,
Chiqib bulbullari chah-chah kulur,
gulzor o'lur olam.*

Darhaqiqat, 10-yillar so'ngiga kelib, she'riyatda hurriyat gulobining atri anqiy boshladi. 17-yilning fevrali keldi. Hurriyat bilan bog'liq umid uchqunlari alangaga aylandi. Avloniy-

ning **“Hurriyat sharafina”** she’ri mumtoz she’riyatimizning musaddas janrida yozilgan. She’rning har bir bandi so’ngida:

*Ko‘b kishilar oshiq erdi senga,
jonon hurriyat,*

*Jon qilibdur necha inson senga
qurbon, hurriyat, —*

satrlari takrorlanib keladi. Uchinchi bandiga kelib, quyidagi misralarga duch kelamiz:

*Mustabid eski hukumat rahm-shafqat
qilmadi,*

*Bir tarafdan zulm etardi, qon to‘kardi
bir yondan.*

Avloniyning **“Qutuldik”** she’ri ham aynan shu tarixiy hodisaga bag‘ishlangan edi. She’r: *“Qutuldi barcha millat zolimi xunxor zulmindan, / Romanov xonavayron bo‘ldi, badkirdor zulmindan”* misralari bilan boshlanadi.

*Guliston o‘ldi olam, har tarafda
sayradi bulbul,*

*Asoratdan qutuldi barcha millat,
istayur hur yo'l,
Xazondan saqla, yo Rab, istayur
millat tikonsiz gul,
Yetishmoq muddaoga ilmsiz, hayhot,
erur mushkul,
Na mehnatlarni ko'rdik, har qayu
ag'yor zulmindin.*

Muxammasning ushbu bandida dastlab muallifning shodiyona kayfiyatini sezsak-da, so'nggi ikki misrada uning umidsizligini ham his qilamiz. Darhaqiqat, dastlab Oktabr to'ntarishi, keyin Turkiston Muxtoriyatining qonga botirilishi Avloniyning millat istiqlo-li bilan bog'liq orzularini yo'qqa chiqardi. Hokimiyat oqdan qizilga o'tgani bilan milliy siyosatda hech qanday o'zgarish bo'lmadi — bir mustabidning o'rnini ikkinchisi oldi. Shu-ning uchun ham Avloniy 1919-yilda yozgan bir she'rida:

*Mavj uran sahro yuzinda qirmizi
ul lolalar,
Mustabidlar dastidin senga
qilurlar nolalar, —*

deb yozgan edi. Shoirning aynan shu yilning fevralida yozgan she'rlaridan biri **“Xafalik soatida”** deb nomlanadi. Mana uning dastlabki misralari:

*Har soniyada o'zga alam, o'zga
jafodur ko'raman,
Har soat ichinda necha bing dard-u
alamdur ko'raman...
Har kun boshingga turfa balo toshi
yog'ilgay,
Har go'shada bo'lsang-da, qudratli
qazodur ko'raman.*

Avloniy erk va ozodlikni har narsadan baland tutarkan, unga olib boradigan birdan-bir yo'l deb ilm-ma'rifatni bildi. Shu sabab Vatan, xalqi uchun zarracha manfaat yetkazishni

o'ylagan kishini ma'rifatga da'vat etdi. Ilm-fanni egallashga ozgina bo'lsin xalaqit berishi mumkin bo'lgan har qanday tartiblar, shu jumladan, eski o'qitish usuli keskin tanqid qilindi. Ilm-ma'rifat, ayniqsa, Yevropa madaniyati ilhom bilan targ'ib etildi.

Ma'rifatning ahamiyati millat, jamiyat tarbiyasida bemisldir. Uni amalga oshirish, asosan, ziyolilar, birinchi navbatda, olim-u muallimlar, shoir-u san'atkorlar zimmasidadir. Agar millat haq-huquqini yo'qotgan, asriy ilm-u ma'rifatan uzoqlashtirilgan, o'zligini unutayozgan bir holga tushib, jamiyat ma'naviyatidan mahrum darajaga yetgan bo'lsa, ziyoli zimmasidagi ish o'n, balki yuz karra og'irroqdir.

Adabiyotning tasvir obyekti — hayot, uning dolzarb masalalari. Unda hayotning barcha qirralari — shiddatkor to'lqinlaridan mayin mavjlarigacha, nurli ohanglaridan g'amgin nidolarigacha, tantanavor damlaridan

fojiali daqiqalarigacha tasvir etilmog‘i kerak. Ular inson ruhida qatradagi quyoshdek jamuljam. Adabiyot mana shu ruhning tarjimoni bo‘lmog‘i lozim.

Avloniy “Adabiyot...” she’riy to‘plamining 3-juziga:

*Qalamim qorasidur ogoh dostonimdan,
Hazin qayg‘um eshiting u*

tarjumonimdan, —

degan satrlarni epigraf qilib keltirgan edi. Shoir o‘z she’rlarining mazmuniga ishora qilmoqda. Zamonki haqsizlik asosiga qurilgan, atrof zulmat va qabohatdan iborat ekan, u shodon bo‘la olmaydi. Buni u 1909-yildayoq “Adabiyot...” ning 1-juzidagi so‘zboshida ta’kidlab ko‘rsatgan, “she’rga haris” xalqiga “hasrat va nadomatlar”ni aytishga bel bog‘lagan, tasodifmaski, o‘ziga **“Hijron”** taxallusini tanlangan edi.

Avloniy she'rlarini o'qir ekansiz, ko'z oldingizda XX asr boshidagi Turkiston manzaralari gavdalanadi. Shoir unga yuksakdan, dunyo xalqlari hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar, Ovrupodagi taraqqiyot nuqtayi nazaridan razm soladi.

Mana taraqqiyot asridagi Turkistonning rangsiz, jonsiz hayotidan lavhalar:

Samovarga chiqishub, yosh-u qari
chuldirashur,

Ertadan kechg'acha choyni ichadur
sho'ldur-sho'ldur,

O'lturub maqtashadur otini, eshaklarini,
Biri der — yo'rg'a, biri der:
— seniki duldur-duldur.

Uyda och o'lturadur xotini,
er to'kma yeyar,

Kelturub bachcha, bazmlarga
ketar puldur-puldur.

*O'ynabon qarta-qimor, pullarini
 boy beribon,
 Tom teshib, bo'xcha o'g'irlab,
 odam o'ldur-o'ldur.*

Bu lavhalardan asta-sekin Turkistonning yaxlit manzarasi hosil bo'ladi. Dilni dimiqtiruvchi bu so'lg'in rang qanchalik jirkanch bo'lsa, shuncha ayanchli hamdir. Bu tuyg'ular borabora shoirda juda tabiiy ehtiroslar po'rtanasiga aylanadi: "Xonumoni xarob", "boyqushlarga hamdam", farzandlari "haykal" dek jonsiz, "vayron" Turkiston! Yo'q! "Sahni jonlik janoza birlan to'lgon" "buyuk mazor!" Unga o'lik kimsalar — "madfun zindalar" qo'yilgan. Bu tirik o'liklar — Turkistonning bu kungi noqobil avlodlaridir. Uning ahvoliga yer ham, osmon ham yig'laydi. U ham faqir, ham haqir. Bir tarafdin jaholat, ikkinchi tomondan xorlik. Shu ahvolda u "badanidan doimo qon oldiradi" — mustamlakachilik jafosini tortadi.

Marizing bir tarafdandan, bir tarafdandan

xorsan, millat,

Badandan doimo qon oldurar

bemorsan, millat.

U na “tili”, na “qulog‘i” bo‘lgan surati devor. Bu mudhish hol shoirni larzaga soladi. Butun vujudi bilan uning “ko‘z ochib” dunyoga razm solishini, “uyg‘on”ishini istaydi:

Ko‘zing och, yotma, g‘aflatdan

o‘son, millat, o‘son millat!

Topar san birla avloding

omon, millat, omon millat! —

deb hayqiradi shoir.

Muhimi shundaki, shoirdagi milliy hasrat nidolari ijtimoiy ohang bilan hamovoz jaranglaydi. Shoir bu “buyuk mazor”ning kimlarga-dir “bog‘i jinon” — jannat gulshani ekanligini biladi. Ha, u hammaga ham birday “alamzor” emas. Uning “farog‘ati” ham bor. Lekin uni “hukamo”gina ko‘radi. Uning “g‘unchalari”

ham ko‘p, biroq uni “hukamo”gina teradi. Ammo bizda qani o‘sha “hukamo?” “Fuqaro”ning nasibasi esa gulning tikani (“xor”)dir. Shu tufayli u oyoq ostida — “xoki mazallat”-da. Bu “manzar” shoirga “mahshar” azobini beradi. Shoir unga har nazar tashlaganda, “bag‘ri kabob” bo‘ladi. Ammo u — Ona! Shoir unga farzandki, uning dardidan iztirobga tushadi. O‘z navbatida, ona ham o‘z farzandining tarbiyasi va taqdiri uchun burchli:

*Ey modarim, cho‘juqlaring iflos, beziyo,
Ostingdan usting o‘ldi biza tar(i)qa
fuqaro.*

Sandin umid shulmidi, jondan aziz ano?!

Avloniy 1912-yilda bosilib chiqqan she‘r-laridan birini **“Dunyo fojiasindan”** deb nomlangan edi. Shoir unda insonlar dunyosida insoncha hayot yo‘qligini qalamga oldi. Behuda to‘kilayotgan qonlar, insonning hayvoncha ham qadri qolmagani, “Bechora-yu ojizlar”,

“aftoda yetimlar” boshidagi “jabr-u sitamlar”, “haq pastda qolub, nohaq pul birla quvvat top” ishi, uningcha, bu fojining bir ko‘rinishidir. Bas, u “g‘am uyi”dir. G‘amxona esa “barbod bo‘l”mog‘i lozim.

Avvalo, shuni aytish kerakki, shoir, garchi odamlar munosabatida yovvoyi tabiatning shafqatsiz qonunlariga xos xususiyatlar ko‘rsada, ularning bir kunmas-bir kun mehr-u muhabbatga aylanishiga, Turkistonning esa ozod va obod bo‘lishiga astoydil ishonadi.

Garchi man ma'yusu purg'am millatim
ahvolidan,

Qat' ummid aylamam, ta'min
istiqbolidan, —

deb boshlanar edi shoirning “Istiqboldan orzularim” she'ri.

Qilur tokay jafosin, bizga ham
dildor o'lur olam,

To'lub mehr-u vafosi, qo'zg'alub
g'amxor o'lur olam,

Muruvvatsizlig'indan jirkanub,
bezor o'lur olam,
Bahori ma'rifat uyg'otsa,
xushguftor o'lur olam,
O'sub rayhoni shafqat mushk ila
totor o'lur olam,
Dilim, g'am chekma ko'b, bir kun kelur,
bedor o'lur olam,
Chiqib bulbullari chah-chah qilur,
gulzor o'lur olam, —

deb yozadi yana bir she'rida.

So'nggi bayt istiqbol orzusi bilan to'liq mazkur musammaning har bandini yakunlagandek takrorlanib keladi. Bu she'r 1912-yilda bosilib chiqqan. Shoir insonlar o'rtasida mehr-u muhabbat, do'stlik qaror topishiga, adolat va haqiqat tantana qilishiga, yorug' kunlar kelishiga ishonch bildirmoqda. Hatto ozodlik — hurriyat zamoni haqida orzu qilmoqda. Lekin, tabiiyki, bular o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Shoir buni yaxshi

tushunadi. Xuddi shu she'r — musamman-ning o'zida ham bunga ishora bor. Shoir gapni ilm-ma'rifatdan boshlaydi. Undan ko'p narsa umid qiladi. Hatto uni salkam nurli hayotga olib boruvchi birdan-bir yo'l deb hisoblaydi. She'rda ilgari surilgan bu fikr ma'lum mantiqqa tayanadi, albatta. Jumladan, usiz keng xalqning o'z huquqini anglay olishi mumkin emasligi tabiiy edi. Shoir o'lkadagi nodonlikni qoralar ekan, shu masalaga alohida e'tibor beradi: *“Huquq(n)ing no'ldig'in idrok qilmas, jismi-miz bejon, — degan satrni uchratamiz she'rda.*

Avloniy 1914-yilda bosilgan **“Muxotabim qalam”** (“Qalamga xitobim”) she'rida qalamga xitoban “ojizlarga imdod qil”ishini “millat xonadonini toza ta'mir ila bunyod et”ishini o'tinadi. Diqqat qilaylik, “toza ta'mir” bilan, ya'ni qaytadan qurib, yangitdan bunyod etish ustida gap ketyapti.

Darhaqiqat, shoir she'riyatining bosh yo'nalishini millatda milliy ongni shakllantirish tashkil etdi. Buning uchun u Turkiston turmushini boshqa xalqlar hayoti bilan qiyoslab ko'rsatdi.

Birinchi Jahon urushi va uning asoratlari mavzui ham Avloniy ijodidan keng o'rin olgan. Shoir bu mudhish falokatning yuzaga kelish sabablarini tahlil qiladi, uning mazmun-mohiyatini belgilashga urinadi. Uningcha, bosh sabab "raqobat", bo'lingan dunyoni bo'lib olishga urinish, "olama hokimlig'" dag'dag'asi edi.

Abdulla Avloniyning 1916-yil, ayniqsa, 1917-yil ikki inqilob oralig'idagi poetik ijodi haqida juda kam ma'lumotga egamiz... Hozircha, uning 1917-yil sanasi bilan bosilib chiqqan 2 she'ri ma'lum. Ulardan biri "Qutuldik", ikkinchisi "Yotma" deb nomlangan. She'rlarning nomidanoq aytilmoqchi bo'lgan gap anglashilib turibdi. Shoir Fevral vo-

qealarini mustabid chor hukumati, “badkirdor Romanov”, “dumdor Rasputin”lar zulmidan qutulgani bilan muborakbod etadi. Haqiqatdan ham samoderjaviyening ag‘darilishi ulkan hodisa edi. Oldinda vazifalarning eng muhimi va, asosiysi, milliy, mustaqil Turkistonni barpo etish, hokimiyatni o‘z egalariga olib berish turardi. Shoir buni tushunadi va “millati najib”ni, “g‘ayrat qilish”ga, “hur yo‘l”ni mahkam ushlab, barcha zulmlardan xalos bo‘lishga chaqiradi.

* * *

Yangi avlod tarbiyasi masalasi XX asr boshida chindan ham favqulodda ahamiyat kasb etdi. Bu boradagi muhim ishlardan biri darsliklar yaratish edi.

Yangi maktablar uchun tuzilgan alifbelar ro‘yxati tuziladigan bo‘lsa, boshida, shubhasiz, Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval”i bilan Munavvarqorining “Adibi avval”i turadi.

Avloniyning “Birinchi muallim”i ham o‘zining ma’lum o‘rniga ega. **“Birinchi muallim” 1917-yilga qadar 4 marta nashr etilgan.**

“Ikkinchi muallim” yuqoridagi kitobning bevosita davomi, “Alifbodan so‘ng o‘qutmak uchun” yozilgan, “axloqiy hikoyalar, adabiy she‘rlar ila ziynatlangan”. Binobarin, u — darslik-majmua. Kitob dastlab 1912-yilda Toshkentda G‘ulom Hasan Orifjonov litografiyasida nashr etilgan.

“Turkiy guliston yoxud axloq” asari. Abdulla Avloniyning bu asari **1913-yilda bosilib chiqdi.** 1917-yilda ikkinchi marta nashr qilindi. Kitob maktablarning yuqori sinf o‘quvchilariga darslik sifatida yozilgan. Lekin asrimiz boshlaridagi o‘zbek jadid ma’rifatchiligining noyob hodisalaridan bo‘lgan bu asarning ahamiyati faqat maktab doirasi bilan cheklanmadi. U adabiyot va axloq havaskorlari uchun ham qo‘llanma bo‘lib xizmat qildi.

Asarda insonlarni “yaxshilikka chaqiruvchi,

yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm” — axloq haqida fikr yuritiladi.

Axloq, bu — xulqlar majmui. Xulq esa, ezgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo‘lishi shakli. Binobarin, har bir xulq ezgulik va olijanoblikning yoki razillik va badbinlikning timsoli. Shu jihatdan ular kishida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma‘lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug‘ilishdan yomon bo‘lib tug‘ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Demak, hamma narsa tarbiyaga bog‘liq. Tarbiya “*yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir*”.

Tarbiya tug‘ilgan kundan boshlanadi va umrning oxiriga qadar davom etadi. U ikki bosqichdan — uy va maktab tarbiyasidan tashkil topgan.

Avloniy tarbiyaning doirasini keng tushu-

nadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo‘ymaydi. “Sog‘ tanda sog‘ aql” degan hikmatning bejiz emasligini yaxshi biladi. Gapni, birinchi navbatda, bolaning sog‘ligi haqida qayg‘urish lozimligidan boshlaydi: “Badanning salomat, quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qumoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur”.

Avloniy masalaning falsafiy asosiga ko‘chadi. Jism bilan ruhning uzviy birligi haqida gap ochadi; “Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o‘ng ila tersi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo‘yub, astarini yuvub, ovora bo‘lmoq kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur”. Yana bir o‘rinda esa “badan elak kabi ko‘zluksdur” degan gap uchraydi.

Jism bilan ruh, shakl bilan mazmunning

uzviy birligi va ularning o'zaro bir-biriga ta'siri masalasi juda muhim va murakkab bo'lib, Avloniy uni, asosan, to'g'ri tushunadi va to'g'ri talqin qiladi. XIX asrning mashhur munaqqidlaridan biri yozadi:

“Nimaiki mazmunda bo'lsa, shaklda o'z ifodasini topadi. Mana bu odamning mudroq, tund ko'zlariga, bo'kib to'yib olganidan harsillab qolgan, baq-baqaloq, davang turqiga nazar tashlang. Naqadar hayvoniy qiyofa! Endi, mana bunisiga razm soling. Bu ozg'in, rangpar kishining ko'zlaridan qanday o't chaqnaydi. U naqadar harakatchan, uning ovozida qanchalar ehtiros bor! Birinchisi, o'lik, ikkinchisida hayot yashnaydi, to'g'ri emasmi?!” Sinchiklab qarang, kishi jism bilan ruhning, ma'naviy olam bilan jismoniy hayotning o'zaro munosabatini ikki muhit, ikki davrda yashagan har ikki adibning deyarli bir xil tushunayotganligini his qilmay iloji yo'q.

Bolalarda fikrlash iqtidorini hosil qilish, fikr

tarbiyasi — benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimlarning “diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan” bo‘lib, ularning “yordamiga so‘ng darajada muhtoj”. Negaki, “fikrning quvvati, ziynati, kengligi” muallimga ko‘p jihatdan bog‘liq. Bolalarning fikrlashi tarbiyachining o‘zini fikrlash va intilish doirasi, saviyasi bilan ham aloqador. Bu xususda adibning keskin mulohazalari bor. Ular haqida keyinroq gap bo‘lar. Hozircha muhimi shuki, Avloniy fikrni o‘stirish masalasiga alohida e‘tibor bilan qaraydi. Unga alohida bob ajratib, ta’kidlab ko‘rsatadi.

“Turkiy guliston...”da aql va ilmning, ma’naviy-axloqiy olamning favqulodda ehtiros bilan ulug‘lanishi adib ma’rfatchiligining bevosita mazmunidan kelib chiqadi. Mana u nima deb yozadi: “Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidur. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir...”

Muallif bu fazilatlarini shunchaki qayd et-

maydi, uning konkret hayotiy, amaliy ahamiyati ustida ham to'xtab o'tadi. Uning insonni kamolotga yetkazishda bosh omil ekanligini atroflicha dalillashga harakat qiladi.

Ilm egallash esa o'z-o'zidan bo'lmaydi, albatta. U har bir kishidan muayyan layoqat va qobiliyatni talab qiladi. Chunonchi, sinchkovlik, har bir narsaga ibrat nazari bilan qaray olish, sa'y-g'ayrat, shijoat kabilar shunday sifatlar jumlasiga kiradi.

Ziyraklik, ochiq fikrli bo'lishga intilishning ham ahamiyati katta. Bular hammasi yoshlikdan boshlanadi. Umr — g'animat. Uni behuda ishlar bilan o'tkazib yuborish jinoyatdir. Adib zehn va idrokni quvvatlantirish uchun o'qish-yozishni o'rganishga ulgurgan har bir bolani har xil kitoblar, gazeta va jurnallar o'qishga va shu orqali dunyoning bordi-keldi-

sini anglash, u haqda fikr yurita olish darajasiga erishishga chorlaydi.

Ilm olish riyozat chekishni, sa'y-g'ayratni talab etadi. Adibning obrazli ifodasiga ko'ra, ilm bamisoli bodomning ichidagi mag'iz. Uni qo'lga kiritish uchun mehnat qilish, chaqib po'chog'idan ajratib olish kerak.

Avloniyning vijdon haqidagi fikr-mulohazalari ham diqqatga sazovor. Uningcha, vijdon — aql va tafakkur mezoni. Umuman olganda, bunday yondashish vijdonning ahamiyatini va mohiyatini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Lekin, unda biroz aniqlik yetishmaydi. Vijdon tarozisining "aql va hikmatga muvofiq" ishlarga "muhabbat" qo'ydirib, "qabohat va yomon" ishlardan "nafrat" ettirishi, aslida, to'g'ri tushuntirish. Biroq, uning to'g'rilik darajasi yaxshi yoki yomon deb nomlanadigan muayyan hodisaga nisbatan qo'llanilgandagina konkretlashadi.

Vatan tuyg'usi — eng insoniy, eng mo'tabar tuyg'ulardan biri. Vatanni shuncha-ki sevish mumkin emas. Uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Vatan — Onadek muqaddas. Uni qadrlash, e'zozlash, uning shodlik va quvonchiga sherik bo'lish, g'am-hasratini baham ko'rish — farzandning burchi. Avloniy Vatan va uning oldidagi burchni shunday tushunadi.

Farzandlar ham har xil bo'ladi. Onaning baxtiga sherik bo'lib, baxtsizligida yolg'iz tashlab ketuvchi farzandlar ham topiladi. Vattanning ham fusunkor tabiatini, bog'-rog'larini xush ko'radigan, lekin tashvish va g'amlarini o'ylamaydigan farzandlari yo'q emas. Vatanni, u qanday bo'lmasin, sevish kerak: "Biz, turkistonliklar o'z Vatanimizni jonimizdan ortiq suydig'imiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho'llarini, eskimoslar Shimol

tarafklarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z vatanlarini tashlab, hijrat qilurlar edi. Bobolarimiz "Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtingda gado bo'l", — demishlar". Muallif o'z fikrini xilma-xil misollar bilan asoslashga harakat qiladi.

Muallif o'z fikrini xilma-xil misollar bilan asoslashga harakat qiladi. Masalan, u shunday tamsilni keltiradi. Ayrim kishilar o'z hovli-joylarini, mol-mulklarini sotib, Makkaga ziyoratga borishadi. Hatto shularning ham aksari yana o'z vatanlariga qaytib keladilar. "Buning sababi, ya'ni bularni tortub keturgon quvvat o'z vatanlari tuproqlarining mehr-u muhabbatidir..." ,deydi.

Bas, shunday ekan, uning uchun jonlarni fido etmoq kerakdir:

Vatan, vatan deya jonim tanimdan
o'lsa ravon,
Bango na g'am qolur, avlodima
o'y-u vatanim.
G'ubor(g)a do'nsa tanim, yo'q vujudi
zeri vahm,
Charoki, o'z vatanim xokidur
go'r-u kafanim.

Tilga, madaniyatga muhabbat esa har bir kishining xalqiga bo'lgan muhabbatidir; "Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadur-g'on oynayi hayoti til va adabiyotidir", — yozadi adib.

So'z — noyob gavhardir. Uning shara-fi benihoya. Har qanday qimmatbaho gavhar uning oldida sadaf ham bo'la olmaydi;

So'z guharig'a erur oncha sharaf-
Kim, bo'la olmas anga gavhar sadaf.

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror"ida

soʻz taʼrifiga bagʻishlangan bob shu satrlar bilan boshlanadi¹.

Buyuk mutafakkir soʻz qudratiga yuksak baho berdi, xilma-xil tamsil va tadbirlar bilan uni koʻklarga koʻtardi, tilni poʻlat xanjariga, soʻzni unga qadalgan injularga qiyos qildi. Yoki mana bu muqoyasalarga eʼtibor qiling: Masih (Isoning laqabi) yaxshi soʻz bilan oʻlganni tiriltirgani uchun “jonbaxsh” laqabini oldi. Soʻz Xalilni oʻtga tashlatdi.

Avloniy ham soʻzning inson qadr-qimmatini belgilashdagi rolga umuminsoniy qarashlardan kelib chiqib baho berdi. Soʻzning maʼnosiga alohida diqqat qildi. Til va soʻz odobi haqidagi umuminsoniy fikrlarni davom ettirdi: “... soʻz insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini oʻlchab koʻrsatadurgon tarozu-dir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va

¹ A. Navoiy. Xamsa. — T.: OʻzFA nashriyoti, 1960. 33-bet.



niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini soʻzlagan soʻzidan bilurlar...

“Agar soʻz aql va hikmatga muvofiq boʻlub, oʻziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqadurgon boʻlmasa, asalarilar orasida gʻoʻngʻillab yurgan qovoqari kabi quruq gʻoʻngʻilamoq, faqat bosh ogʻrigʻidan boshqa bir narsa emasdir. Boshimizga keladurgon qattiq kulfatlarning koʻpi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun “koʻp oʻyla, oz soʻyla” demishlar”.

Insonni bezaydigan sifatlar koʻp. Chinakam inson yalqovlik va dangasalikni oʻziga nomus deb biladi. Yoshligidan ilm-maʼrifatga, hunar va sanʼatga mehr qoʻyadi. Mehnatning aybi yoʻq. Qora ishchi bilan olimning zahmati koʻrinishdagina har xil. Ularning ikkisi ham mehnat. Mehnat bilan kun kechirishesa, buyuk saodat. Aksincha “...bu — koʻmurchilik, bu — temirchilik, menga munosib ish emas, deb dangasalik qilub, ishsiz yursa, zoʻr ayb, gʻayratsizlikdur...”

Inson moddiy ne'matlarni yaratishdan tashqari, ularning qadriga ham yeta bilmog'i darakor. Bular o'zaro juda yaqin, biri ikkinchisidan kelib chiqadigan tushunchalardir. Kimki bir parcha nonni mehnat bilan topsa, uning qadriga ham yetadi. Avloniy ularning hammasini iqtisod mafhumi bilan beradi. Uningcha, "iqtisod deb pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmakni aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganda so'mni ayamas. Saxovatning ziddi baxillik o'ldig'i kabi iqtisodning ziddi isrofdir..."

Chopar hayotini tahlikaga qo'yib tog'-u toshlar, qir va cho'llar oshadi. Xabarni yetkazadi. Chopar olib kelgan xabar, ehtimol, mudhish bo'lishi mumkin. Shunda ham aql egalari uni o'ldirmaydilar. Chunki u haqiqatni yetkazadi. Avloniy "Haqqoniyat" deb atalgan bobda yuqoridagi misolni ibrat qilib keltirdi. Rostlik va to'g'riso'zlikni insonning eng in-

soniy sifatlaridan biri deb bildi: *“Haqqoniyat deb ishda to‘g‘rilik, so‘zda rostlikni aytilur. Inson bo‘stoni salomatga, gulzori saodatga haqqoniyat yo‘li ila chiqar. Insoniyatning ildizi o‘lan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarning onasi haqqoniyatdur”*...

Hayo, iffat o‘ylab chiqarilgan tushunchalar emas. U asrlar bo‘yi inson tushunchasi bilan birgalikda shakllangan. Inson odobini hayo deganda “ishda, so‘zda adabni rioya qilmoq”ni tushunadi, uni insoniylikning muhim belgisi deb biladi.

Hamma narsaning ma‘lum bir me‘yori bor, albatta. Insoniy viqorni suiiste‘mol qilish kishini takabburlikka olib kelib qo‘yadi. Haddan oshgan yumshoqko‘ngillik — halimlik kishini xor qiladi. Kamtarlik esa xokisorlikka eltadi. Bu yerda ham shakl va mazmun-mutanosibligining temir qonuni o‘ziga xos holda namo-

yon bo'ladi. Chinakam insonlik viqori kishida olimlik, fozillik va yuksak odob jamlangandagina namoyon bo'ladi. Ikkinchi tomondan esa, har bir xulqdagi me'yorni his qilish, o'z fe'l-atvori, xatti-harakatining insoniyat qonunlariga monand bo'lishiga erishishning o'zi yuksak axloq va fozillik belgisidir.

Avloniy xulq haqida umuman gapirib qo'ya qolmay, unga konkret yondashishga harakat qiladi. Adibning diqqat markazida hamisha umuminsoniylik mezoni turadi. Bu mezon islomiy axloqqa suyanadi va u kishilarni shu paytga qadar ota-bobolarimiz tarbiyasiga xizmat qilib kelgan turmushqoidalari bilan bog'laydi.

Shunday tushunchalar bor, ularning nomini eshitganingizdayoq borlig'ingizni iliq va yoqimli hislar chulg'ab oladi. Agar ular bo'lmaganda hayot zulmatdan, tirikchilik vahshiyona kun o'tkazmoqdan iborat bo'lib qolardi. Mu-

habbat, sadoqat, xayrixohlik, olijanoblik kabilar hayotga nur, umrga mazmun baxsh etadi. Insonning sharafli mavqeida bularning o'rnini alohida.

Muhabbatning qamrovi keng. Vatanga muhabbat, xalqqa muhabbat, do'stga muhabbat, yorga muhabbat.... Lekin uning mazmunida bir narsa juda aniq. Muhabbat — kimgadir, nimagadir chanqoq bir intilish, uni o'zining jon-tani deb bilish, butun borlig'ini unga baxshida etish tuyg'usi bilan yonish, uni baxtiyor va shodon etmoqqa bo'lgan buyuk ishtiyoq. U sahroni bo'stonga aylantira oladi, toshdan gul undiradi. Avloniy "Muhabbat" deb nomlangan bobni shunday satrlar bilan boshlaydi "Muhabbat deb bir narsani suymakni aytilur. Dunyodagi insonlar mehr va muhabbat soyasida yasharlar. Har bir ishni muhabbat orqasidan ishlarlar. Muhabbatsiz kishilar hech bir ishni ishlamag'a g'ayrat va jasorat qilol-

mas, dunyo ne'matidan lazzat ololmas. Agar bir shogird ilm va muallimni suymasa, ishtaho ila o'qumasa, maqsudga yetolmas. Yer yuzidagi insonlarni urushma-taloshmalarga qovushdirg'on, siynalarini dushman o'qig'a nishona qildurgon narsa din va millatlarining, Vatan va davlatlarining muhabbatidir. Kishini(ng) kecha va kunduz tindurmasdan qul kabi mehnat va mashaqqatlariga ko'krak berub ishlatadurgon narsa Vatan va bola-chaqalarining mehr-u muhabbat emasmi?"

Kishilarni yaxshilikka undash, yomonlikdan qaytarish, dunyodagi barcha insonlarga ezgulik istagi bilan yashash chinakam olijanoblikdir. Odamlar umr bo'yi bir-birlari bilan aloqada bo'ladilar. O'zaro yordamga, hamkorlikka hojat sezadilar. Shunday ekan, xayrixohlik, olijanoblik insonlar hayotida katta ahamiyat kasb etadi.

Kishilar fe'l-atvorlariga, orzu-intilishlariga ko'ra, bir-birlariga yaqinlashadilar yoxud uzoqlashadilar. Yaxshilik do'stlikni vujudga keltiradi. Agar bu do'stlik maslak va manfaatlar birligi asosiga qurilsa, benihoya mustahkam va samarali bo'ladi. Umrni xush va mazmunli o'tkazish uchun bunday do'stlik juda kerak. "Munislik deb har kim o'z tengi, maslakdoshini topub, ulfat bo'lmakni aytilur. Dunyoning lazzati sodiq do'stlar ila suhbat qilmakdan iborat", — deb yozadi Avloniy.

Do'stlik deyilganda hamisha sadoqat ko'zda tutiladi. Negaki, bu tushunchalar bir-biriga benihoya yaqin. Adib sadoqatni shunday ta'riflaydi:

"Sadoqat bir fayzi ma'naviydurki, u fayzdan hissasini olmak har bir kishining muqaddas vazifasidir..."

Endi bundan besh yuz yil ilgari yozilgan ulug' Navoiyning "Hayrat ul-abror" idagi satrlarni eslaylik:

*Har kishiga yetsa falakdin g'ame,
 Bo'lmasa hamdardi aning hamdame.
 Rozi labin tikkon ipin so'kmasa,
 Harneki ko'nglida erur to'kmasa.
 Dard yoqib shu'layi nobudini,
 Charxdin o'tkargay aning dudini.
 Tig'i balo ko'ksini chok aylagay,
 Dard oni bir damda halok aylagay...
 Bas, kishiga umr xushi yor emish,
 Umr degan yori vafodor emish².*

Demak, do'stlik, birinchi navbatda, hamdardlik, hamkorlik, hamdastlik. Do'stlik — o'z vafosi, sadoqati bilan mustahkam. Navoiy buni hayratomuz tamsillar bilan bergan edi. Masalan, vafosiz yor — ziyosiz sham'; ziyosiz sham' — muz, sumalak kabi.

Inson uchun yolg'izlik — eng og'ir jazo. So'qqabosh hech qachon baxtiyor bo'lgan

² Alisher Navoiy. Xamsa. — T.: O'zFA nashriyoti, 1960, 81-bet.

emas. Bir qo'ldan qachon sado chiqqan axir? Yolg'iz kishining hayoti g'amdangina iborat. Toq kishining maishat uyi vayron, butun bir uyni yagona ustun ko'tarib turganini kim ko'rgan? Burgutning bir qanoti sinsa, qancha tez uchmasin, hayoti lahzadan oshmaydi. Buyuk mutafakkir mana shunday qiyoslarda do'stlikning hayotiy asoslarini aniq va tiniq detallar bilan ko'rsatib bergan edi.

U bolalarni o'zaro do'st, hamkor va hamdast bo'lishga chorlar ekan, dunyoda xiyonat va soxtalik degan gaplar ham borligini ma'lum qiladi. Ulardan hazar etishni tayinlaydi. "Ilmi axloq yuzasidan chin do'st va yori sodiq ila ulfat qilmak lozimdur. Chunki ba'zi kasallarning yuqishi bo'lgoniga o'xshash nodon va ahmoq kishilarning urf-u odatlari va yomon xulqlarining ta'siri, siroyati yuqishi muqarrardur. Ba'zi do'st suratida ko'rinmish ikkiyuzlama, munofiq dushmanlar ham ko'p bo'lurlar. Shuning

uchun har bir kishiga sinamasdan, bilmasdan do'stlik qilmak, sir aytmak zo'r aqlsizlikdur. Chin do'st bo'lgan kishi boshingga kulfat va qayg'u kelgan vaqtlarida san bilan barobar qayg'urur, xotirangdagi qayg'ungni bo'lushub olur. Siringni noahil va nodon kishilarga aytmas, aybingni orqangdan so'zlamasdan yuzingga aytur. Shodlik vaqtingda san bilan barobar shodlanur. Yolg'on do'st sandan bir foyda umidida yoki o'z boshiga kelgan zararni qaytarmak uchun munofiqlona do'stlik qilur. Siringni noahil kishilarga so'zlab, qadr-u e'tiboringni poymol qilur. Bunday kishilarga do'st bo'lmakdin do'stsiz (o'tmoq) yaxshiroqdur".

"Turkiy guliston..."da "Yomon xulqlar" deb nomlangan bo'lim bor. Unda kishilarga xos 18 qusur haqida gap ketadi. Bularning hammasini jamlaydigan bo'lsak, asosan, bir narsaga — jaholatga kelib bog'lanadi. Muallif nazdida, ularning aksariyati uchun xos bo'lgan

xususiyat johillikdir. Shu boisdan adib tanqid tig'ini asosan jaholatga qaratadi. Uni insoniyat uchun eng katta illat deb biladi. G'azab, shaqovat, buzuqlik — safohat, hamoqat, yalqovlik — atolat, xasislik — xasosat, tanparvarlik — rahovat, takabburlik — anoniyyat, chaqimchilik — namimat, g'iybat, qo'rqqoqlik — jibonat, hasad, yolg'onchilik — kizb, nifoq, tama' kabilar ko'pincha shundan kelib chiqadi...

Sharq adabiyotida axloq va odob favqulodda katta o'rin egallaydi. "Adabiyot" mafhumining o'zi ham odob so'ziga borib taqalishi bejiz emas. Sharqda bu mavzuga to'qinmagan she'r ahlini topish qiyin. Yozma adabiyotimizning birinchi yirik namunasi "Qutadg'u bilig" o'rta asrning axloq qomusi edi. Alisher Navoiyning bu masalaga qanchalar e'tibor berganligi hammaga ma'lum. Sharqda axloq ilmining buyuk allomalari yetishib chiqdi-

lar. Sa'diy Sheroziy shunday buyuk rutbaga musharraf bo'lganlardan edi. U o'zining "Guliston" va "Bo'ston" asarlari bilan badiiy ijodda yangi bir yo'l ochib berdi...

Avloniy o'z asarini yaratishda Shayx Sa'diy izidan bordi. Kitobning "Turkiy Guliston yoxud axloq" deb nomlanganligi bejiz emas. Avloniy buni kitobning 1917-yilgi ikkinchi nashriga yozgan so'ngso'zida alohida ta'kidlab ko'rsatadi. U shunday yozadi: *"Turkiston maktablarida o'z shevamizda yozilmish mukammal "Axloq" kitobining yo'qligi afrodi shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanlig'i, o'zum muallimlar jumlasidan o'ldug'imdan, manga ham ochiq ma'lum o'ldi. Shuning uchun ko'p vaqtlar tajriba so'ngidan adibi muhtaram Shayx Sa'diy usulinda yozmakni, garchi og'ir ish bo'lsa ham, o'zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq va bu kamchilikni arodin ko'tarmakni munosib ko'rdim"*.

Adabiyotshunoslar haqli e'tirof etganlaridek, eski o'zbek maktablarida asosiy darsliklardan biri sifatida o'qitilib kelgan "Guliston" fors klassikasining eng ko'rkam, eng "barjastasi" edi. Unga ergashib yozilgan asarlar ko'p bo'ldi. Abdurahmon Jomiyning mashhur "Bahoriston"i, Muiniddin Juvayniy va Ibn Kamolposhshoning "Nigoriston", Majdiddin Xavofiyning "Guliston"i ham mana shu buyuk obidaga o'ziga xos nazira, o'ziga xos javob, shogirdning ustozga ta'zimi edi. Avloniy ustozdan birgina "usul"ni olmadi, uning yuksak insonparvarlik ruhi bilan to'liq she'riyatidan ham oziq oldi. Ularning ayrimlarini tarjima qilib asariga kiritdi.

Sa'diy bilan Avloniy davrini 600 yildan ortiqroq vaqt ajratib turadi. O'rta asrning buyuk gumanisti bilan XX asrdan nafas olgan Avloniyning qarashlarida, tuyg'ularida anchagina farq bor, albatta.

Avloniy axloq to'g'risida "Guliston"ga o'xshash bir asar yozar ekan, shu bahonada zamonasining muhim, dardli masalalarini ham asarga g'oyat ustalik bilan singdirib keta oldi. Bular huquqsizlik, mustamlakachilik asoratlari bilan bog'liq tutqunlik va turg'unlik edi. Din-diyonatning, millat-milliyatning buzilishi edi. Adibni xalqning nochor, g'arib turmushi chuqur o'yga soladi:

*Har kun o'luram shomg'acha man
g'amga giriftor,*

*Har shab yonuram otasha parvona
kabi zor.*

*Hech kimsa emas bu mani
ahvolima voqif,*

*Man xastayam-u, millatim o'lmish
nega bemor?*

Asarning ilk sahifasida keltirilgan bu to'rtlik unga bermalol epigraf bo'la oladi. Shoir har bir axloqiy tushunchani talqin qilar ekan, uni

bevosita o'z davri masalalari bilan bog'laydi va kitobga o'sha zamon nafasini olib kirishga muvaffaq bo'ladi. Masalan, asarda "Tarbiyaning zamoni" degan qism bor. Unda tarbiyaning uyda, so'ngroq maktab-madrasada olib borilishi haqida gap ketarkan, bunday ishga imkonsiz xalqning og'ir moddiy tirikchiligi achinish bilan qayd qilingan. "Maqsadi pul, maslagi shuhrat, yuqori maktablarda o'qimagan, "usuli ta'lim" ko'rmagan muallimlari", "matlablari osh, maqsadlari chopon, darslari beimtihon, isloh yaqinidan yurmagan mudarrislar" o'tkir hajv ostiga olinadi. Yoki "Tama'" bobida zamonasida "tama' noni birla qorin to'yg'uzadurgon kishilarning hisobi yo'q"ligini oshkor etadi. Yana bir o'rinda esa mustamlaka Turkistonidagi erksizlik, chorizm tazyiqi, mehnatkashning mashaqqatli tirikchiligi haqida so'z ochadi: *"Biz, osiyoliklar, xususan, turkistonliklar dumba sotub, chandir chaynaymiz,*

*qaymoq berub sut oshiyimiz, non o'rniga ke-
sak tishlaymiz...".*

Avloniy adolatni, har bir millatning ozod va baxtli bo'lish huquqini dunyoning asosi deb bildi, birovga "jabr qiluvchining yoqasi hech qachon jazo qo'lidan qutula olmas"ligini aytdi. Zulmni qoralar ekan, Mazlumning ohidan o'tkur narsa yo'q:

Hazar qil ohidan, afg'onidan u

mazlumni(ng)

Bir oh birla solur boshinga

butun arosat, —

deya, "quvvatsizlar" g'amini yedi.

"Turkiy Guliston..." asrimiz boshlaridagi pedagogik fikr taraqqiyotidagina emas, balki, umuman, bu davr ijtimoiy-estetik tafakkur rivojida ham sezilarli iz qoldirdi. Uning bu yerda boshlab qo'ygan juda ko'p fikrlari badiiy asarlari va publitsistik maqolalarida ham davom etdi.

* * *

Avloniyning **“Maktab gulistoni”** kitobi 1916-yilda nashr etilgan. Kitob “milliy she’rlardan 5-juz” sifatida taqdim etiladi. Milliy maktablarning ikkinchi sinfiga mo’ljallab yozilgan bu majmua shunday so’zlar bilan ochiladi:

*Maktab — xazinayi adab-u ilm-u izzating,
Maktab — bog’i jannati firdavs, ne’mating.
Maktab kishini jahl-u daniydin qilur xalos,
Maktab — kalidi Ka’bayi qalb-u
zakovating.*

Adabiy axloq-u maroq-u shavq ila o’qulaturg’on hikoyalar, she’r ila Turkiston maktablarining ikkinchi sinflaridan boshlab o’qutmoqqa muvofiq ravishda yoz bolalar uchun yengil vazn va oson sheva uzra tartib berildi”. Majmua o’ttizdan ziyod she’riy hikoya va masal shaklidagi she’rlardan iborat. Shulardan

“Vatan” nomli bir she’rda shoir:

*Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,
Har kim sening qadring bilmas —
aqli pas(t)dur, —*

deyish bilan ikkinchi sinfdayoq millat farzandlari qalbiga Vatan tuyg‘usini singdirishga harakat qiladi.

1916-yilning 25-iyulida oq podshoning Turkiston aholisidan 250 ming kishini frontga qora ishga olish haqidagi Farmoni e’lon qilindi. Askarlikka emas, qora ishga — mardikorlikka. Bunda ishonchsizlikdan tashqari tahqir ham bor edi. Uning ustiga buni suiiste’mol qilish, poraxo‘rlik, zo‘ravonlik avj oldi. Norozilik paydo bo‘ldi. Qonli to‘qnashuvlar yuz berdi. 1916-yilning iyulida butun Turkistonni g‘alayonlar qopladi...

Yigitlarni frontga jo‘natish mavzuida adabiyotimizda o‘nga yaqin she’riy to‘plam maydonga kelgan. Avloniyning “Mardikorlar

ashulasi” kitobi ham shular sirasidan. Xalq qo‘shiqlari yo‘lida yozilgan bu she‘rlar g‘oyat dardli, g‘amgin. Ularda osoyishta hayotni chayqatib, insonlar taqdirni alg‘ov-dalg‘ov qilib yuborgan urushga, uning haybarakallachilariga pinhoni g‘azab yashiringan. Shoir o‘z she‘rlari bilan o‘zbek mardikorlik poeziyasi degan hodisaning maydonga kelishida o‘z hissasini qo‘sha oldi.

1917-yil G.H. Orifjonov litografiyasida Avloniyning **“Mardikorlar ashuvlasi”** kitobi bosmadan chiqdi. Muallifning e‘tiroficha, “Bu asarda yozilmish she‘rlarning Turkistondan (...) birinchi *“to‘da” mardikorlarni jo‘natmoq uchun chiqishda yasalgan namoyishda Toshkentdagi tyotruga maxsus “Turon” to‘dasi tarafidan turli (matif) kuylarda o‘qilgan edi. Ko‘b kishilar istimos qiluvi sababli, jam‘ qilinub, nashr qilindi va boshqa bir necha*

shoirlarning yozgan she'rlarini, o'zlarining ruxsatlari ila, bu adabiyotga ilova qilindi".

“Mardikorlar ashuvlasi” kitobiga kiritilgan she'rlarning aksariyati Avloniy qalamiga mansub. To'plamdagi o'nta she'rdan to'qqiztasida “Hijron” taxallusi qo'llanilgan.

Yurtdoshlarimizni kuzatish marosimida Avloniyning o'zi qatnashgan. She'rlardan birida mardikorlikka ketayotgan yigitning ota-ona va qarindoshlari bilan xayrlashuvi manzarasi tasvirlangan:

*Biz ketarmiz, siz qolursiz ko'zlaringiz
yosh bo'lub,*

*G'am chekmangiz biz kelurmiz tez kunda
o'ynab-kulib.*

Yomon kunlar yaxshi bo'lur, tez

kelurmiz, g'am yemang,

Xudo sizga to'zim bersun, biz

keluncha sabr aylang.

Abdulla Avloniyning **“Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi Islom”** asarining birinchi nashri 1910-yilda amalga oshirilgan³. Kitobda asar sarlavhasidan keyin shunday soʻzlar bitilgan: “Odam alayhissalomdan Muhammad alayhissalomgacha oralarinda oʻtgan paygʻambarlarning qissalari va zuhuri Islom. Bu kitob ibtidoiy maktablarning uchunchi va toʻrtinchi sinf shogirdlarina maxsusdir”. Asar kichik sinf bolalariga paygʻambarlar hayoti va Islom tarixini tanishtirishda alohida ahamiyatga ega.

* * *

Avloniyning **“Afgʻon sayohati”** asari kundalik tarzida yozilgan. 1919-yilning iyunida Avloniy RSFSR hukumatining topshi-

³ Ushbu kitobning Zokirxon Shokirxon oʻgʻli tomonidan amalga oshirilgan tabdili 1994-yilda “Fan” nashriyoti tomonidan chop etilgan.

rig'i bilan Afg'onistonga boradi. 1919-yilning 28-sentabridan 1920-yilning 20-iyuligacha Hirotda bosh konsul bo'lib turadi. Afg'on safari Avloniydagi bolsheviklar hukumati-ga bo'lgan shubhani kuchaytirib yuboradi. O'zlarini haqiqatchi deb jar solgan rus bolsheviklarining sobiq chor generallaridan mut-laqo qolishmasligiga amin bo'ladi. *"Oh, na insoniyat, na barobarlik, na sotsialistlik, na millat tafriq qilmaydurg'on internatsionalist-lar dunyo yuzinda topilarmukin?"* — yoza-di "Afg'on sayohati" xotiralarida. — *Balki bordur, topilur, lekin vujudi anqoning tuxu-midek kamyob ekanlig'in Afg'oniston safa-riga chiqg'onda aniq bildim. Afg'onistong'a chiqg'on besh hay'ati vakolaning ichida bir-gina musulmon man o'ldig'imdan har bir og'ir mehnatlar, har bir kulfat va aziyatlar*

*meni ustimg'a yuklandi... O'rtoq Brovin⁴ Afg'on tufrog'iga o'tgandan so'ng o'zini(ng) jenerol chor noil e'lon qilmish edi"*⁵. Bu asar o'sha davr afg'on ma'murlarining yangi sovet siyosatiga munosabatini o'rganishda alohida ahamiyatga ega.

Abdulla Avloniy publitsistik maqolalarining aksari 1914–1915-yillarda chop etilgan “Sadoyi Turkiston” gazetasida bosilgan. Bu hol uning tahririyatdagi mavqe'-e'tiborining ancha baland bo'lganligini ko'rsatadi. Mana u maqolalarning ba'zilari: “Tiyotr xususida munozara”, “Madaniyat to'lqunlari”, “Kim nimani yaxshi ko'rar”, “O'z shahrimda sayohat”, “Kayfim uchdi”, “Zakot”, “Hifzi lison”, “Jaholat”, “Safohat balosi”.

⁴ N.Z.Brovin — RSFSRning Afg'onistonga yuborgan hay'ati vakilligi boshlig'i.

⁵ A.Avloniy. Afg'on sayohati (Qo'lyozma). 64-bet.

* * *

DRAMALARI. Avloniyning 10-yillarda yozgan **“Pinak”** (1915), **“Advokatlik osonmi?”** (1916) dramatik asarlarida⁶ she’riyatdagi g’oya va fikrlar davom etdi. Jaholat va zulmatga botgan Turkistonning chirkin manzaralari kulgili lavhalarda sahnada namoyish qilindi. Chunonchi, **“Pinak”**da g’ayrat va shijoatlari bilan dunyoni larzaga solgan, kunchiqardan kunbotishgacha yurt so’ragan buyuk bobolarning zalolatga botgan avlodlari ko’knori va qimorbozlar hayoti orqali fosh etiladi. **“Advokatlik osonmi?!”** dramasiining mazmuni quyidagicha: Davonbek Rusiyada yetti yil o’qiydi va Turkistonga advokat bo’lib qaytadi. Lekin shu o’tgan vaqt ichida uning turmushida

⁶ Avloniy “Tarjimayi hol”ida to’rt teatr kitobi yozganini ma’lum qiladi. Shaxsiy arxivda “to’rt teatr kitobi”ning avtografi — ayrim ko’chirilgan nusxalari saqlanib qolgan. Shundan uchtasi (“Advokatlik osonmi?!", “Pinak”, “Biz va Siz”) 1979-yil e’lon qilingan: A.Avloniy. Toshkent tongi, 300–373-betlar.

biror o'zgarish bo'lmapti. Xalq hali ham ilm-u ma'rifatdan yiroq. Fuqarolik qoidalari, davlat qonunlari, huquqiy tartiblardan bexabar. Shu sababli ular baxtsizdirlar. Davronbek shunday o'ylaydi va qo'lidan kelgancha ularga yordam bermoqchi bo'ladi.

Adibning **“Biz va Siz”** asari nomlanishidan ko'rinayotganidek, turmushga ikki xil yondashishni ifoda etadi. Unda jaholat mavzui bilan yonma-yon muhabbat ham beriladi. Uning markazida Yevropada o'n yil o'qib “yangi hayot”, “yangi turmush” haqidagi jo'shqin orzular bilan qaytgan Kamolning taqdiri tura-di. U “churub, biljirab ketgon” “eski turmush”ni “tuzatmoq”chi. Uning butun fikri-zikri shu bilan band. U o'qimishli Maryamni sevadi. Uning sevgisi ham, aytish mumkinki, g'oyaviy-ma'naviy yaqinlik asosiga qurilgan. Biroq “eski turmush” kuchlari ustun keladi. Kamol va Maryam halok bo'ladilar. Ammo

ularning o'limi optimistik mazmun uchun xizmat qiladi. Avloniy juda muhim bir masalani, insonning baxti va turmushini asar markaziga qo'yadi va jiddiy ijtimoiy ziddiyatni keskin vaziyatlarda ochib berishga urinadi.

Avloniyning shaxsiy arxivida **“Po'rtugaliya inqilobi”**⁷ nomli bir dramatik asari bor. U adibning boshqa asarlaridan ajralib turadi. 5 parda 10 ko'rinishli bu asarni muallif fojia (tragediya) deb atasa-da, mazmuniga ko'ra u qahramonlik dramasiga yaqin. Qo'lyozma muqovasiga “1921-yil 23-yanvarda yozildi” deb qo'yilgan. 20-yillarda adabiyotimizda “jahon revolyutsiyasi” degan gap keng tarqalgan

⁷ Dramaning ikki qo'lyozma nusxasi saqlangan. Birinchisida tuzatishlar ko'p, sahifalar 45-betgacha raqamlangan. Ikkinchisi ancha mukammal. Sarg'ish qog'ozdan tekis qilib dastalanib, daftar qilingan. 1921-yil ko'chirilgan. Muqovada Turkglavlitning 8.10.24 sanasi bilan 962-raqamli ruxsat muhri bor. Chamasi, u o'shanda nashrga tayyorlangan va noma'lum sabablarga ko'ra, bosilmay qolgan.

payt edi. Shu jihatdan buni ham shu yillarda yozilgan deb taxmin qilish mumkin.

Avloniy qo‘lyozmalari orasida yana bir tugallanmagan pyesa bor. U **“Ikki sevgi”** deb nomlangan⁸. Ikki pardalik fojia shaklida mo‘ljallangan bu drama 1908-yilgi Turkiyada bo‘lib o‘tgan yosh turklar inqilobiga bag‘ishlangan. U yerda asar qahramoni Nozimbekning ikki muhabbati — hurriyat va yor muhabbati haqida gap ketadi. Nozimbek — “Ittihod va taraqqiy” jamiyatining a‘zosi. Kechtunda unga ertaga bo‘ladigan hal qiluvchi qo‘zg‘olon haqida xabar keladi. Shu payt xotini Xolidaxonim kirib qoladi. Hurriyatchilarning shaharda qilayotgan ishlaridan so‘z ochadi. Nozimbek ich-ichidan Xolidaxonimning xayrixohligidan mamnun bo‘lsa-da, ertangi qo‘zg‘olon haqida-

⁸ M. Rahmonov uni “Ikki muhabbat” deb bergan (O‘zbek teatri tarixi. — T., 1968, 333-bet.) Avloniy arxividagi tugallanmagan avtograf nusxada u “Ikki sevgi” deb nomlangan.

gi maktubni undan bekitadi. Uning xatarlik bu ishga aralashishini istamaydi. Biroq uni bu yo'ldan qaytarolmasligiga ishonch hosil qilgach, maktubni ko'rsatishga majbur bo'ladi. Er-xotin farzandlar taqdiri haqida uzoq tortishadilar. Lekin ularning grajdanlik tuyg'ulari hamma narsadan ustun keladi. Ular kurash va o'limni afzal biladilar.

Avloniyning inqilobiy to'ntarishlar davridagi faoliyati qanchalar tahlikali kechgan bo'lsa, ijodi ham shu qadar murakkab, ziddiyatli bo'ladi. U, bir tomondan, inqilobga katta umid bilan qaradi, o'z iste'dodini uning xizmatiga qo'ydi. Ikkinchi tomondan, uning o'zgarishlaridan qanoatlanmadi. To'g'rirog'i, yurtning iqtisodiy talon qilinayotganligini, mahalliy xalqqa hech qanday huquq berilmaganligi, asriy tartib-udumlar, milliy an'analar oyoqosti bo'layotganini, din-diyonat yemirilayotganini ko'rib iztirobga tushdi:

*Har soniyada o'zga alam,
o'zga jafodur, ko'raman,
Har soat ichinda necha ming
dard-alamdur, ko'raman...
Derlarki oying yar(mi)si qaro,
yarmisi ravshan,
O'ttuz kuni ham bizga bukun
qop-qarodur, ko'raman...
Hijron, o'tadur hasrat ila oy-u yilimiz,
Har asr biza bir to'da g'am
oh-navodur, ko'raman⁹.*

Inqilob baxt, farog'at olib kelmog'i, zulmning ildizi qirqilib, adolat gullari barq urmog'i lozim edi-ku! Nega bunday bo'ldi? Nahotki, "Inqilobni daholar tayyorlaydilar, mutaassiblar amalga oshiradilar, muttahamlar rohatini ko'radilar" degan Bismark yana haq bo'lib chiqsa?!

* * *

⁹ "Ishtirokiyun" gazetasi, 1919, 69-(13-fevral) soni.

Avloniy 17-yildan keyin yana 17 yil yashagan bo'lsa-da, ijodda ham, faoliyatda ham inqilobdan ilgarigidek serharakat bo'lgan emas. Hatto birorta adabiy-badiiy kitob yoxud to'plami bosilmagani ham buni ko'rsatib turibdi. To'g'ri, "Nabil", "Indamas", "Shuhrat", "Tangriquli", "Surayyo", "Chol", "Ab", "Chegaboy", "Abdulhaq" kabi imzolar bilan gazeta-jurnallarda, ayniqsa, "Mushtum" da ko'plab hajviyalar-she'rlar, kulg'i hikoyalar bostirib turdi. Lekin katta, jiddiy ishlar qilmadi. Ammo she'rlarida qochiriqlar, taggaplar ko'payib bordi. Masalan, uning "Mushtum" ning 1923-yil 15-sonida bosilgan "Bir munofiq tilidan" she'riga e'tibor bering:

*Men bir shunday kishidurkim, hech kimsa
Sen yamon deb hech shikoyat qilmag'an.
Men bir shunday usta kishidurmankim,
Kimsa mening qilar ishimi bilmag'an.
Xalq qoshida dindor bo'lub din lofin*

Urub tinmay, "din, din!" deya so'zlayman.
 Agar biror jadid aftlik uchrasa,
 Maorifdan so'zlab uni aldayman.
 Chunki meni hech bir kimsa bilmaydir,
 Men kimdirman — sira-sira sezmaydir.
 Ayog'img'a mahsi-kovush kiyganman,
 Ustimga-da keng bir chopon ilganman.
 Yolg'izgina ichdan kiygan kamzulim,
 Kalta etib, miyiqni-da qirganman.
 Ha-ha-ha-ha! Qanday aldab yuraman,
 O'zim kimman? Uni o'zim bilaman...
 Shu qornim-chun har ishni-da ishlarman,
 Istar esam, xalqimni-da sotarman.

Kim u? Oddiy bir munofiqmi yoki inqilob irodasini bukib, intilishlarini jilovlab, o'z oqimiga ag'darib surib olib ketayotgan o'zbek ziyolisining tavba-tazarru'simi? Bizningcha, bu yerdagi ikkiyuzlamachilik u qadar jo'n emas. Uni shunchaki "kishi fe'lidagi bir qusur-da", deb o'tib ketib bo'lmas. U — atayin yaratil-

gan qusur. Muallif bir kishini emas, butun ziyolini buqalamunga aylantirib qo'ygan inqilobni, sho'ro hukumatini nishonga olyapti.

O'ylaymizki, Avloniyning inqilobdan keyingi "faoliyatsiz"ligining shu xil teran sabablari bor.

U o'z zamonasining jonli odami, farzandi edi. Shuning uchun uning ijodida ham zamon murakkabligi bilan izohlanadigan nuqsonlar yo'q emas. Lekin yuqorida shoirning ma'rifatchiligi faoliyati va ijodiy merosi misolida ko'rib o'tkanimizdek, Abdulla Avloniy hamiha o'z xalqiga, Vataniga sodiq qoldi. Buning guvohi — uning ijodi, uning faoliyati! U hamma vaqt xalq dardi bilan yashadi. U o'z xalqi g'amiga hamdardgina bo'lib qolmadi, uning istiqboli uchun qayg'urdi, unga ozodlik va baxt qidirdi, uni muqaddas g'oyalar uchun kurashga da'vat qildi. Maktablar ochib, keng xalqni ma'rifatli qilishga, yoshlarni davrning ilg'or

ruhida tarbiyalashga urindi. Ta'limiy-axloqiy asarlar, darsliklar yozib, o'zbek pedagogik fikri taraqqiyotida sezilarli iz qoldirdi. Jadidchilik harakatining, o'zbek jadid adabiyotining, ya'ni milliy ong, milliy adabiyotning maydonga keli-shi va taraqqiyotiga katta xizmat qildi.



HIKMATLI SO‘ZLARI



* * *

Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon qiladigan kitobni axloq deydilar.

So'ylasang so'yla yaxshi so'zlardan,

Yo'qsa jim turmog'ing erur yaxshi.

O'ylasang, yaxshi fikrlar o'yla,

Yo'qsa, gung bo'lmog'ing erur yaxshi...

* * *

Jasadning ham, nafsning ham biror surati bordirki, yo yaxshi va yo yomon bo'ladi. Jasadning surati hammaga ma'lum bir narsadirki, har vaqt ko'zga ko'rinib turadi. Ammo nafsning surati ko'zga ko'rinmaydigan aql bilan o'lchanadiki, buni xulq deb ataydilar.

Xulqi yomon yuz-ko'zlidin na sud,

Yuz-ko'zli xulqin qilmas kashud.

Xulqi yomonning ke(l)turar ko'p zarar,

Xulqing o'zi boshing(g)a kaltak urar,

* * *

Axloq olimlari insonlarning xulqlarini ikkiga bo'lganlar: agar nafs tarbiya topib, yaxshi ishlarni qilishga odat qilsa, yaxshilikka sifatlab "yaxshi xulq", agar tarbiyasiz o'sib, yomon ishlaydigan bo'lib ketsa, yomonlikka sifatlab "yomon xulq" deb ataganlar. Inson tabiati qabul qiluvchidir. Agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kimning nazdida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o'ssa, Allohdan qo'rqmaydigan, shariatga amal qilmaydigan, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo'lib qoladi.

Xudoning rahmat-u fayzi hama insonga
yaksardur,
Va lekin tarbiyat birla yetushmak sharti
akbardur.

* * *

Bolaning salomatligi va saodati uchun uni yaxshi tarbiya qilmoq, tanini pok tutmoq, yosh vaqtdan maslagini tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o'rgatmoq, yomon xulqlardan saqlab o'stirmoq kerakdir. Tarbiya qiluvchilar tabib kabidirki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi, tarbiyani bolaning vujudidagi non-donlik kasaliga "yaxshi xulq" degan davoni ichidan, "poklik" degan davoni ustidan berib, ulg'aytirmoq lozimdir...

Har kishining dunyoda oromi joni tarbiyat
Balki oxirda erur dorul-amoni tarbiyat.

Tarbiyat hamrohetodur hur ila rizvonlara,
Gar desam bo'lmas xato, jannat makoni
tarbiyat...

* * *

Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq,
vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrimizni nur-

lantirmoq, axloqimizni go‘zallantirmoq, zehnimizni ravshanlantirmoq lozim ekan. Tarbiyani kim qiladi? Qayerda qiladi? — degan savol keladi. Bu savolga: Birinchi — uy tarbiyasi, bu ona vazifasidir. Ikkinchi — maktab va madrasa tarbiyasi, bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir...

Xulosa shuki, tarbiya bizlar uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir.

* * *

Agar bir qushning yosh bolasini olib,
Bo‘lur tarbiyat birla yo‘lga solib.
Onasini olib asrag‘on birla rom
Qilmas, kishi sa‘y qilsa mudom.
Kerak tarbiyat yoshlikdan demak,
Ulug‘ bo‘lsa lozim kelur g‘am yemak...

* * *



Badanning salomat va quvvatli bo'lishi insonga eng kerakli narsadir. Chunki o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, sog'lom badan lozim. Sog' tanga ega bo'lmagan insonlar amallarini ham, ishlarini ham, ibodatlarini ham kamchilik bilan qiladilar...

* * *

Salomatlikni saqlov lozim ishdur,
Gunohdan saqla jisming yoz-u qishdur.
Kasal bo'lsang, bo'lur dunyo qorong'u,
Maishat talx o'lub, hasrat chekishdur...

* * *

Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri qadrlanib kelingan, muallimlarning e'tiborlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir. Fikr insonning sharo-fatli, g'ayratli bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga shu darajada muhtojdirki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi

muallim tarbiyasiga bog'liqdir. Ta'lim bilan tarbiya orasida biroz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydigan, birining vujudi ikkinchisiga bog'langan jon bilan tan kabidir.

* * *

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,
Xanjar, olmosdan bo'lur o'tkur.
Fikring oyinasi olursa zang,
Ruhi ravshanzamir o'lur benur.

* * *

Insonlar uchun eng muhim hisoblangan, obro' keltiruvchi, baland daraja beruvchi axloq tarbiyasidir... Shuning uchun tarbiya qiluvchi muallimlarning o'zlari ilmlariga amal qiluvchi bo'lib, shogirdlariga ham bergan darslarini amal bilan qo'shib o'rgatmoqlari lozim. Bu tarzda ta'lim bilan berilgan dars va ma'lumot shogirdlarning diliga tez ta'sir etib, ilmiga amal qiluvchi bolalar bo'lishiga xizmat qiladi.

* * *

Fatonat aql egasi bo'lish demakdir. Aql insonlarning mukammal yo'lboshchisi va yagona rahnamosidir. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir...

* * *

Aqldek zebo sifatni ko'rdi Haq,
insonga eb,
Oqil insonlar bilan berdi jahon —
olamg'a zeb.
Aql nuri birla to'ldi dunyoga ilm-u hunar,
Aqlsiz inson qachon bilgusidir naf'-u zarar.
Aqlsizlar bilmagaylar din nadur,
dunyo nadur?
Bo'lmasa aqli bilurmi farz ila
sunnat nadur?

* * *

Diyonat Alloh huzuriga yaqin qiladigan muqaddas e'tiqoddirki, olamda undan suyukli

narsa yo'qdir. Din va e'tiqodi salomat bo'lmagan kishilar haqni botildan, foydani zarardan, oqni qoradan, yaxshini yomondan ayira olmaydi. Bunday kishilardan na o'ziga va na boshqa kishilarga va na millatga tariqcha foyda yo'qdir. Din janobi Haq tarafidan bandalari uchun qurilgan to'g'ri yo'ldirki, banda dunyo va oxiratda bu ko'prik orqali salomatlik sohiliga chiqadi.

* * *

Ibodati ikki turli bo'ladi: biri tan ibodati, ikkinchi ruh ibodati. Tan ibodati tahorat, namoz, ro'za, zakot, haj kabi amallardirki, bularning har birini o'z vaqtida shariatga muvofiq ravishda minnat qilmasdan, riyo qilmasdan, dilni poklab, niyatni xolis qilib, shavq-u zavq bilan ado etish lozim. Ruh ibodati qalb bilan ado qilinadigan ibodatdirki, e'tiqodni mahkam, dilni pok qilib, Qur'on, hadis, fiqh kabi diniy kitoblar o'qilganda jon qulog'i bilan tinglab, ta'sirlanmoqdir. Bir kishi tan ibodatini qilib, ruh ibodatini qilmasa, yo ruh

ibodatini qilib, tan ibodatini qilmasa o'z vazifasini ado etmagan bo'ladi. Aql din bilan, din amal bilan, amal taqvo bilan kamol topadi. Din insonlarning dilida saxovat, marhamat, shafqat, ulfat, muruvvat eshiklarini ochib, saodat va salomatlik bo'stoniga olib boradi.

* * *

Pok qilg'il diningni, imoningni,
Qul huvar-Rohmanu amanna bih¹.
Dilingni yoqmasun havas zinhor,
Va qina, Robbana, azaban-nor².

* * *

Islomiyat — komil insoniylikdir. Insoniylik esa yaxshi xulqdan iborat. Islomiyatni

¹ Ayting: "U (Olloh) Rahmon — mehribondir. Bizlar Unga iymon keltirdik..." (Qur'oni karni, "Mulk" surasi, 29-oyatdan. Shayx Alouddin Mansur tarjimasini).

² Parvardigor, (...) bizni do'zax azobidan saqlagin. (Qur'oni karim, "Baqara" surasi, 201-oyatdan. Shayx Alouddin Mansur tarjimasini).

Rasuli akram sallallohu alayhi vasallam afandimizning yolg'iz o'zlari butun dunyo yuziga yaxshi xulqlari soyasida tarqatdilar. Sahobalar ham Payg'ambarimizning orqalaridan ergashib, mahkam e'tiqodlari, yaxshi axloqlari, pok qalblari, o'tkir shijoatlari bilan bashariyatga ibrat bo'ldilar. Har narsaning ofati bo'lgani kabi zamonlarning o'tishi bilan islomiyatning ittifoqiga ko'z tegdi...

* * *

Odillar yeriga zolimlar, olimlar yeriga abu jahllar, bulbullar yeriga qarg'alar, qumrilar yeriga boyqushlar, bilmadim, hokimlar yeriga kimlar o'tirdilar. Shu sabablarga islomiyat dunyosi inqiroz sahrosiga yuzlandi. Islom hukumatlari ham birin-ketin ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Yetsa navbat o'lturar boyqush Sulaymon
tomiga,
 O'rgimchaklar in qo'yar Afrosiyob
ayvoniga.

* * *

Nazofat deb a'zolarimizni, kiyimlarimizni, asboblarimizni pok va toza tutmoqqa aytiladi. Poklik zehn-u idrokni keng va o'tkir qiladi... Poklik — musulmonlikning ildizidir. Shuning uchun tani, kiyimi, joynamozi nopok kishining ibodati ham durust bo'lmaydi.

Xalqi olam suyqusidur tozalik va pokni,
Poklik ortturgusidur fahm ila idrokni.
Har kishini(ng) ko'ksida poklik nishoni
bo'lmasa,
Tozalik maydonidan quvg'aylar ul
bebokni.

* * *

Sa'y va g'ayrat deb, o'z zimmasidagi ibodat va xizmatlarni jidd-u jahd bilan bajarishga aytiladi. Yalqovlik qilib, ishsiz, bekor yurmoq shariat va aql yuzasidan durust emas. Zero, Qur'oni karim bizlarni harakat qilishga amr et-

gan. Dangasalik har vaqt insonni xorlik, tama' balosiga yo'liqtiradi. G'ayrat vujudimizga quvvat, saodatmand va baxtiyor bo'lishimizga sababdir... G'ayrat imonga hamda vijdonga dalildir.

* * *

Haq buyurdi: «Laysa lil-insani illa maa
sa'yo»³,
G'ayrat ila o'tdi olamdan Muhammad
Mustafo.
Biz-da ummatmiz, qilayluk sa'y ila xayru
saxo,
Qilsalar shoyad shafokat sohibi ro'zi jazo.

* * *

Riyozat deb, savob ishlarni qilib, gunoh ishlardan saqlashga aytiladi. Riyozat adab-

³ Har bir insonga (Qiyomat kunida. — muh.) o'z qilganidan boshqa narsa yo'q (Qur'oni karim, "Najm" surasi, 39-oyat. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tarjimai).

ning koni, ruhning darmonidir. Insonlarni to'g'ri yo'lga solib, egri yo'ldan qaytaruvchi riyozatdir. Shu sababli riyozat qiluvchilar oqil va fozil bo'ladilar. Ular Alloh va xalq oldida maqbul va mo'tabardirlar. Yalqovlik, ko'p uxlamog, yomon odamlar bilan yurmog, vaqtni bekor o'tkarmog, aysh-u ishrat qilmog, ko'p ovqatlanmog, foydasiz so'zlar so'zlamog, choyxonalarda, ko'chalarda aziz umrni bekor o'tkarmog kabi ishlarning hammasi riyozatga zid, umrning egovi, Xudoning g'azabidir.

* * *

Allohning buyrug'i, Rasulullohning sunnatlari, shariat qil degan ishlarni birin-ketin, o'z vaqtida qilmog ham ibodat, ham riyozatdir.

Riyozat mevasidur misli bodom,
 Yuzi qattig', ichidur ishta in'om.
 Kishin maqsudini eltar riyozat,
 Riyozatsiz ish o'lgay besaranjom.

Agar sabr-u riyozat cheksang, ey jon,
Pishub oldinga tushgay mevayi xom.

* * *

Qanoat deb, janobi Haq tarafidan in'om etilgan ne'mat-u molga shukr, boshimizga kelgan faqirlik, musibat, falokatlarga sabr qilmoqqa aytiladi. Qanoat hasad, tama', hirs, xorlik kabi illatlarning davosi, nafsimizning boyligidir.

Qanoat bir xazinadirki, naqd puli kundan-kun ortadi. Bu xazinaga ega kishilar umrlarini shavq-u rohatda kechiradilar.

Olamda qanoat kabi dilni poklaydigan narsa yo'q. Janobi Haqning amriga itoat qilish qanday saodat bo'lsa, taqdiriga qanoat etish bundan ham ziyoda baxtiyorlikdir.

* * *

Ilm deb, o'qimoq va yozmoqni yaxshi bilmoq, har bir kerakli narsalarni o'rganmoq-

qa aytiladi. Ilm — dunyoning izzati, oxiratning sharofati. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatlarimizni oyna kabi ko'rsatadi. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qiladi. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ajratib beradi, to'g'ri yo'lga boshlovchilik qilib, dunyo va oxirat saodatiga sabab bo'ladi. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir.

*Ilm bir daryo, ichi to'lmish dur-u gavhar
bilon,
Qiymat-u qadrin qachon bilg'on oni johil
yilon.*

* * *

Sabr deb, boshimizga kelgan balo va qazolarga chidamli bo'lmoqqa aytiladi. Har bir ishda sabr va sovuqqonlik bilan harakat qilmoq lozim. Chunki boshimizga keladigan balo

va qazo, zahmat va mashaqqatlarning barchasi janobi Haqning irodasi bilan bo'lgani uchun, bularga sabrsizlik qilgan kishilar ajr va savobdan quruq qoladilar...

Sabr ila har mushkil ishzoyil bo'lur,
 Sabr edan maqsudina noyil bo'lur.
 Har kishida bo'lmasa sabri jamil,
 Nafs ko'yina yurub soyil bo'lur.
 Sabr qilsang, g'o'radan halvo bitar,
 Sabrsizlar o'z oyog'idan yitar.

* * *

Hilm deb, bo'lar-bo'lmas ishga ach-chig'lanmaydigan, arslon yurakli, yumshoq tabiatli bo'lmoqni aytadilar. Hilm insonlarning tabiatidan xusumat, adovat, g'azab, tezfe'llik kabi yomon xulqlarni yo'q qiladigan hammaga yoqimli bir sifatdir. Hilm axloq ilmi yuzasidan insonga eng kerakli narsadir.

Nafsning rohati, qalbning matonati, fikrning salomati, vijdonning halovati halim tabiatli

bo'lmoq bilan hosil bo'ladi. Dunyoda chin inson bo'lmoq uchun havasning qo'lga nafsning jilovini bermaydigan, bo'lar-bo'lmas narsalardan achchig'lanmaydigan, vazmin, yumshoq tabiatli, muloyim so'zli, halim va sabrli bo'lishimiz lozim.

Halimlikni qilsang agar ixtiyor,
Bo'lur xalqi olam sanga do'st-u yor.
Bo'lur mevalik shoxni boshi past,
Halim o'lg'usi oqili hushyor.

* * *

Intizom deb, barcha ibodat va ishlari-mizning har birini o'z vaqtida, tartibi bilan qilmoqni aytadilar. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar. Janobi Haq yer-u osmonlarni, oy va yulduzlarni, inson va hayvonlarni, qurt va qushlarni shunday bir nizom bilan tartib berib yaratganki, aql bilmoqdan, qalam yozmoqdan, til so'zlamodan ojizdir.

* * *

Vijdon deb, ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladigan hissiyotdan iborat ma'naviy quvvatga aytiladi. Biz har vaqt fe'l va harakatlari-mizning yaxshi va yomonligini, foyda va zararini shunday vijdonimiz bilan bilamiz. Vijdon inson aqli va fikrining haqiqiy mezoniki, bu tarozu vositasida kishi o'z kamchiliklarini o'lchab bilmoq barobarida, boshqalarning ham fe'l va harakatlarini sezadi. Agar qilgan ishi shariat, aql va hikmatga muvofiq bo'lsa, xursand bo'ladi, qabohat va yomon ishlarni qilsa nafratlanadi.

* * *

Biz janobi Haqning buyurgan va qaytar-ganlarini fikr va ruhimizning ma'naviy quvvati bo'lgan vijdonimiz bilan ajrata olamiz.

Har bir insonning haqiqiy foili vijdonidur, Mevasi yaxshi amaldur, hosili vijdonidur.

* * *

Vatan... Har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakatini shu kishining vatani deydilar. Har kim tug‘ilgan, o‘sgan yerini jonidan ortiq sevadi.

Biz turkistonlilar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq sevganimiz kabi, arablar Arabistonlarini — qumlik, issiq cho‘llarini, eskimoslar shimol taraflarini — eng sovuq, qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda sevadilar. Agar sevmasalar edi, havosi yaxshi, tirikchilik oson yerlarga o‘z vatanlarini tashlab, ko‘chib ketar edilar.

* * *

“Vatan!”, “Vatan!” deya jonim tanimdan
chiqsa ravon,
Manga na g‘am, qolur avlodim(g)a
uy-u Vatanim.

soʻzlaydilar. Ishda toʻgʻrilik — birovning naf-
siga, moliga xiyonat qilmaslik, soʻzda toʻgʻrilik
— har vaqt rost soʻzlamoligidir.

* * *

Haqshunoslik oʻlmoq sharofatdur jahonda
odama,
Haqni izhor aylamak birla koʻrk ber olama.
Yarashur insona sidq-u toʻgʻrilik gar koʻrsa
girihi,
Toʻgʻrining yordamchisidir Haq taolo,
gʻam yema.
Toʻgʻrilarning maskani firdavs ayvonidadur,
Egrilar ikki jahonda gʻam-alam konidadur.

* * *

Iffat deb nafsimizni gunoh va buzuq ish-
lardan saqlashni aytadilar. Bizlarni gunoh va
maʼsiyatdan saqlovchi, harom-harishdan naf-
simizni asrovchi faqat iffatimizdir. Axloq so-
hibi, iffat egasi qalbini, vijdonini poklab, tilini

yolgʻon, gʻiybat, boʻhton va bemaʼni soʻzlar-
dan ehtiyot qiladi.

* * *

Zotingga ziynat oʻlan iffatni dilda saqlagil,
Shahvat-u nafsing sani boʻlgʻusidur

aqlinggʻa qul.

Har kishining dunyoda yirtilsa iffat pardasi,
Nafsi shaytondek ani bir kun solur

boʻyniga gʻul.

* * *

Hayo deb, ishda, soʻzda adabga rioya qil-
moqqa aytiladi. Hayo dilni ravshan qiladigan
bir nurdirki, inson har vaqt shu maʼnaviy nur-
ning ziyosiga muhtojdir. Shariat buyurmagan,
odamlar suymagan ishlarni qilmoq — gʻiybat,
hajv, masxara, safsata, soʻkish kabi odamlar-
ning nafsoniyatiga, iffatiga tegadigan adabsiz
soʻzlarni soʻzlash zoʻr hayosizlikdir. Iffatning
pardasi, vijdonning niqobi hayodir.

* * *

Hayo, nomus imona dalildur,
Hayosiz doimo xor-u zalildur.
Uyalma ma'rifat hosil qiluvdan,
Maorifsiz kishilar murdadildur.

* * *

Idrok va zako deb, ochiq fikrli, xushtabiat, ziyarak bo'lmoqqa aytiladi. Idrok va zako yaxshi xulqlarning ravzayi rizvoni, ibrat ko'zlarining rahmoniy nuridir. Chunki idrokli kishilar har bir maqsadning ostida yashirin bo'lgan fikrning ma'nolari qaysi yerdan borib chiqishini biladilar. Ilm-u ma'rifat sohibi bo'lmoq uchun sa'y va g'ayrat kerak bo'lgani kabi, zehn va idrokning ham salomat bo'lmog'i shartdir.

Idrok ila aqling-la ayur yaxshi-yamonni,
Behudaga sarf etma shu qimmatli

zamonni.

Sa'y et, jadal et, ilm-u fununa harakat qil,
Boq, nayladilar hikmat ila ushbu jahonni.

Hifzi lison deb, har bir millat o'z ona til va adabiyotini saqlamog'iga aytiladi. Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oyinayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdir. Hayhot! Biz turkistonlilar milliy tilni saqlamoq bir tarafda tursun, kundan-kun unutmoq va yo'qotmoqdamiz. Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulangani kamlik qilib, bir chetiga rus tilini ham yopishtirmoqdamiz. Durust, bizlarga rus tilini bilmoq hayot va saodatimiz uchun osh va non kabi kerak narsadir. Lekin o'z yerida ishlatmoq va so'zlamog lozim. Zig'ir yog'i solib, moshkichiri kabi qilib, aralash-quralash qilmoq tilning ruhini buzadi.

* * *

Yohu! Bizga nima bo'ldi? Bobolarimiz yo'lidan chiqib ketdik. «Yaxshi qo'shningdan

olguncha, yomon uyingni qidir», deganlar. Bobolarimizga yetishgan va yaragan muqaddas til va adabiyot bizga hechkamlik qilmas. O'z uyimizni qidirsak va axtarsak, yo'qolganlarini ham toparmiz. «Yo'qolsa-yo'qolsin, o'zi boshimga tor edi», deb Yevropa qalpog'ini kiyib, kulgi bo'lmoq zo'r ayb va uyatdir. Payg'ambarimiz: «Erlarda jamol lison va tildir», deganlar.

* * *

Ey ona til, aziz qadrdonim,
 Itifoti ruhim, rahmonim,
 Tug'dig'im kundan aylading ulfat,
 O'lgunimcha ayilma, ey jonim.
 Menga ilm-u adab san o'rgatding,
 Chin adib, muallimim — shonim.
 Millating ruhini ko'targuchisan,
 Eng muqaddas karamli sultonim.

* * *

Umumiy milliy tilni saqlamoq barobarida,
 xususiy — og'iz orasidagi tilni ham saqlamoq

lozim. Chunki soʻz insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini oʻlchab koʻrsatadigan tarozusidir.

Tillarning eng yaxshisi soʻzga usta til, soʻzlarning eng yaxshisi bilib va oxirini oʻylab aytilgan soʻzdir.

* * *

Goʻzallik yuzda ermas, ey birodar,
 Soʻzi shirin kishi har kimga yoqar.
 Soʻzing oz boʻlsin-u, maʼnoli boʻlsun,
 Eshitkanlar qulogʻi durga toʻlsun.
 Soʻzing boʻlsa kumush, jim turmak oltun,
 Misi chiqqʻay, soʻzing koʻp boʻlsa, bir kun.
 Koʻpaygan soʻzni boʻlgʻay toʻgʻrisi oz,
 Shakarning koʻpidan ozi boʻlur soz.

* * *

Iqtisod deb, pul va mol kabi neʼmatlarning qadrini bilmoqqa aytiladi. Mol qadrini biluvchi kishilar oʻrinsiz yerga bir tiyin sarf

qilmaydi va o'zni kelganda so'mni ayamaydi. Saxovatning ziddi baxillik bo'lgani kabi iqtisodning ziddi isrofdir. Alloh taolo isrof qiluvchilarni suymaydi.

Amerikaliklar bir dona bug'doy ekib, yigirma qadoq bug'doy oladilar, yevropaliklar o'zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni o'zimizga qaytarib yigirma besh tiyinga sotadilar.

* * *

So'zning qisqasi, hozirgi zamonga muvofiq kishi bo'lmoq uchun ilm va ma'rifat bilan bir qatorda iqtisod, insof, tuganmas harakat, bitmas g'ayrat lozimdir.

* * *

Xalq ichinda mo'tabar bir narsa yo'q
davlat kabi,
Bo'lmag'ay davlat jahonda quvvat-u
sihhat kabi.
Iqtisod, insof ziynatdur vujudi odama,
Yaxshi ne'mat yo'q kishiga sa'y ila
g'ayrat kabi.

* * *

Viqor deb, kibr va g'ururdan, manmanlikdan o'z nafsini saqlamoqqa aytiladi. Viqor shariat va hikmat yuzasidan inson uchun eng kerakli yaxshi xulqlarning biridir. Viqorsiz odam e'tiborsiz boyga, kibrli kishi illatlik faqirga o'xshaydi. Har kimning qadr va e'tibori nafsining viqori bilan o'lchanadi. Viqorli kishilar kibr-u g'ururga aslo yaqin yurmaydilar. Chunki g'urur, manmanlik, takabburlik kishini xor, xalq orasida bee'tibor qiladi, har qancha ilm va davlat sohibi bo'lsa ham, bir pulcha qadr va qiymati bo'lmaydi.

* * *

Xavf va rajo deb, qo'rqmoq va umidvor bo'lmoqqa aytiladi. Banda har ishda janobi Haqdan qo'rqmoq bilan bir qatorda umidini ham uzmasligi lozimdir. Chunki janobi

Haqdan qo‘rqqan inson hech narsadan qo‘rqmaydi. Har vaqt janobi Haqning lutf va marhamatiga umid ko‘zlarini tikib turadi. Xavf va rajo shunday bir yaxshi sifatdirki, bu xislatni o‘ziga hamroh qilgan kishi eng fozil, hech narsadan qo‘rqmaydigan sher tabiatli, arslon yurakli bo‘ladi.

* * *

Hazrati Ibrohim alayhissalomni Namrud o‘tga tashlay deb turgan zamonda: «Ey Ibrohim! Siz meni bu haroratli otashimdan qo‘rqmaysanmi?» degan. Hazrat Ibrohim: «Ey, zolim! Alloh taolodan qo‘rqqan kishi Namrudning otashidan qo‘rqadimi?» deb javob berganlar.

Hech kishidan qo‘rqmag‘ay
Tangrisidan qo‘rqg‘an kishi,
Otasha yondursalar,
Bo‘lg‘ay umid birla ishi.

* * *

Itoat deb, bo'ysinmoqqa aytiladi. Alloh taoloning amriga bo'ysinib, ibodat va itoat qilmoq farzi ayndir. Rasuli akram nabiyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Alloh taoloning amriga teskari bo'lgan holda hech kimning amriga itoat qilmoq vojib emasdir», deganlar. Ota-ona, ustod, muallim kabi o'zidan ulug' kishilarga bo'ysinib, itoat qilmoq eng yaxshi sifatlardandir. Bu sifatga ega bo'lmoq uchun har vaqt ularning foydali kengash va nasihatlarini tinglab, buyruqlarini mahkam tutmoq lozim.

Nasihati bo'lsa xoli gar g'arazdan,
 Ach(ch)ig' doru kabi saqlar marazdan.
 Biza lozim erur bilmoq, eshitmoq,
 Ziyondan boshqa bir shay yo'q g'arazdan.

* * *

Haqshunoslik deb bir kishining qilgan yaxshiligini unutmaslikka aytiladi. Butun olamdagi



insonlar haqshunoslik va do'stlik orqasida yashaydilar. "Qars" ikki qo'ldan chiqadi. Shariatda yaxshilik qilgan kishiga yaxshilik qilmoq vojibdir. Donishmandlar yomonlik qilgan kishiga ham yaxshilik qilmoq lozim deydilar.

* * *

Yaxshi ishdur haqni taqdir aylamak har
xizmata,
Haqshunos o'lmak haqiqiy bir quvvatdur
millata.
Haqshunos o'lmak-la mashhur erdilar
Payg'ambarim,
To'g'ri yo'lni tashlamak aslo yoqishmas
ummata.

* * *

Xayrixohlik deb, nima bilan bo'lsa-bo'lsin, bir-birimizga foyda keltirishga aytiladi. Xayrixohlik bir-birimizga nisbatan ishlatiladigan bir insoniy vazifadirki, kishi o'z nafsiga loyiq

ko'rmagan bir ishni boshqa bir musulmon qarindoshiga ham munosib ko'rmasdan, egri yo'llardan, yomon ishlardan kuch yetganicha qaytarmoq va unga yordam qilmoqdir.

Xayrixohlik xolisona bo'lmasa bekordur,
Manfaat yo'q, aylagan nazr-u

niyozingdan sani.

Bir ko'ngilni shod qilmak ne'mati ehson ila,
Yaxshidur har damda ming rak'at

namozingdan sani.

* * *

Munislik deb, har kim o'z tengi, maslakdoshini topib, do'st bo'lmoqqa aytiladi. Dunyoning lazzati sodiq do'stlar bilan suhbat qilishdan iborat.

Axloq ilmi yuzasidan chin do'st va sadoqatli yor bilan o'rtoqlashmoq lozim. Chunki ba'zi kasalliklar yuqumli bo'lganiga o'xshash, nodon va ahmoq kishilarning urf-odatlarini va yomon xulqlarining yuqishi muqarrardir.

Yaxshi do'st aybi yor-u do'stini,
Ko'zgudek ro'baro'sida so'zlar.
Yomon o'rtog' tarog'cha ming til ila,
Orqadan birmalab terib so'zlar.

* * *

Sadoqat deb, kishi o'z vazifasini to'g'rilik bilan bajarmoqqa aytiladi. Sodiq kishi din va millatiga, Vatan va davlatiga to'g'rilik bilan xizmat qilib, obro' va mukofotlar oladi. Sadoqat salomatlik gulshani va najot bo'stonidir. Sadafdan inju, ilondan zahar hosil bo'lgani kabi rostlikdan foyda, xiyonatdan zarar hosil bo'ladi.

* * *

Sadoqat bir ma'naviy fayzdirki, bu fayzdan hissasini olmoq har bir kishining muqaddas vazifasidir.

Sidq-u safo-yu rostlig' bo'lsa qarobating,
Shuldur jahonda rohat-u fayz-u saodating.

Olamda to'g'irikcha yo'q odamning
ziynati,
Qalbing alifdek bo'ldimi, ayni sharofating.

* * *

Adolat deb, boshqalarning mol va nomusi-
ni e'tiborga olmoqqa aytiladi. Adolat yaxshi
xulqlarning bajaruvchisi, zulmning teskaridir.
Adolat va marhamatli kishilar o'ziga lo-
yiq ko'rmagan bir ishni o'zgalarga ham ravo
ko'rmaydilar... Har bir millatning taraqqiyoti
va yuksalishi, davlat va hukumatlarning uzoq
yashamog'i adolatga bog'liqdir. Adolatdan
mahrum podshohlarning davlatlari yo'q bo'lib,
tarix sahifalarida faqat ismlari qolgani ham-
maga ma'lum.

Adl o'lsa podshohning oyog' ostida palos,
Boshingda bo'lg'usidur oning toji
barqaror.

G'olib bo'lurga chiqsa, agar yengidan qo'li,
Bo'lg'ay nasib gardanig'a hiyladan tumor.

* * *

Muhabbat deb, bir narsani sevmοqqa aytiladi. Dunyodagi insonlar mehr va muhabbat soyasida yashaydilar. Har bir ishni muhabbat bilan bajaradilar. Muhabbatsiz kishi hech bir ishni qilmoqqa g'ayrat va jasorat topolmaydi, dunyo ne'matidan lazzat ololmaydi. Agar bir shogird ilm va muallimni suymasa, ishtiyoq bilan o'qimasa, maqsadiga yetolmaydi. Kishini kecha-kunduz tinmasdan, qul kabi mehnat va mashaqqatlarga ko'krak berib ishlatadigan narsa Vatan va bola-chaqalarning mehr-u muhabbati emasmi?

Muhabbatlik bahorning kuz husuli hech oz
bo'lmas,
Muhabbatsiz kishining ko'ngli qishdur, aslo
yoz bo'lmas.
Suyub ilm-u funun tahsil etgan uchgay
havlarga,
Qayu baxti qaro johil qolur, dasti daroz
bo'lmas.

* * *

Olihimmat deb, din va millatga foydali ishlarni mol-u jon bilan qilmoqqa aytiladi. Himmat shunday bir olijanob fazilatdirki, insoniyatning koni, yaxshi xulqlarning posboni demoq joizdir. Himmat sohiblari karim sifatlik, rahim tabiatlik bo'ladilar. O'z qavmining farzandlaridan hech vaqt yordamini ayamaydilar. Xayr-u saxovatlik ishlardan o'zini tortmaydilar. Pul va molini millat yo'lida sarf etmoqdan qizg'anmaydilar. Olihimmat kishi soyasi latif, mevasi laziz daraxt kabidirki, bu soyaga yaqin bo'lgan kishilar har vaqt foydalanadilar.

* * *

Bir kishi qilgan kamchiliklarini bo'yniga olib, afsuslanib kechirim so'rasa, afv qilmoq lozim. Chunki afv yaxshi xulqlarning afzali, insonning kamoli belgisidir. Janobi Haq

Qur'oni karimda afvni maqtab, madh qilgan-
dir. Olijanob kishilar uzrni qabul qiladilar. Bir
kishi nuqson va kamchiliklarini bo'yniga olib,
uzr so'rsa, afv qilib, kechiradilar. Kattalik va
ulug'likning lazzati birovdan o'ch olmoqlikda
emas, balki afv qilmoqlikdadir.

* * *

Ulug'larning ishi afv aylamakdur,
Kichiklar uzr uchun bel boylamakdur.
Musulmonlig'da yo'q kin-u adovat,
Dila afv-u adolat joylamakdur.

* * *

Insonlarni abadiy saodatdan mahrum qila-
digan, janobi Haq qoshida va xalq nazarida
nafratga loyiq, hayotimizni zaharlovchi bo'lgan
yomon xulqlar bor.

* * *

G'azab deb, bir kishining ikkinchisiga shid-
dat va keskinlik bilan muomala qilganiga ayti-
ladi. G'azab inson uchun maxsus bir himoya

quvvatidirki, tabiatida mavjud g'azab tuyg'usi orqali boshqalar tarafidan keladigan zarar va halokatdan o'z nafsini muhofaza qiladi. Lekin g'azabni jabr va zulm yo'liga ishlatmoqdan nihoyatda ehtiyot bo'lish kerak. Nafsning g'ururidan paydo bo'lgan g'azab insonni alamlik azoblarga giriftor etadi. Chunki bu shiddat va haroratning ta'siri vujudagi qonni buzib, aqlni parishon qiladi va kishi ixtiyorini qo'ldan oladi. Va bu ishi bilan o'zini yoxud boshqa bir kishini hasrat va nadomatga duchor qiladi.

* * *

G'azablik bo'lmag'il, bo'lg'il muloyim,
 Bo'lursan shod-u xurramlikda doim.
 G'azab o'tdur, yoqodur jism-u joning,
 G'azab barbod etodur xonumoning.
 G'azablik o'tni bo'shsuv past qilg'ay,
 G'azabni jinni yoki mast qilg'ay.

* * *

Shahvat nafsning ishratparastligi va zulm-korligidan hosil bo'ladigan bir quvvatdir. Tabiiylik qonunining azaliy hukmi bo'lgan hikmatga qaraganda, shahvoniy hissiyot — hayot bardavomligi uchun xos bo'lgan bir tug'ma quvvat. Shahvat insonning qiymatga arzigulik bir xazinasini bo'lgani uchun ham shar'iy suratda sarf qilinsa, vujudning zakoti, balki odam naslining hayot poydevoridir.

* * *

Shahvat inson uchun yaratilgan bir qurol-dirki, agar o'z o'rnida foydalanilsa, vujudimizni har xil zararlardan saqlar, o'rinsiz yerlarga sarf bo'lsa, insonning nomusini barbod qilish barobarida, hayotini ham xarob aylar.

* * *

Agar shahvatka dil bersang, bo'lur qalbing
qaro kam-kam,
Ketar nasling o'qi, bel quvvati, ko'zdan
ziyo kam-kam.

Tamomi ixtiyoring nafsi badni
 ilgina bersang,
 Marazlarga duchor aylar, bo' lur ranging
 fano kam-kam.
 Buzuq yo' llarga isrof aylasang,
 molingni, joningni,
 Qo' lingdan din-u dunyo, ish, ketar
 sharm-u hayo kam-kam.

* * *

Jaholat deb o' qimagan, bilimsiz, hech nar-
 sga tushunmaydigan nodonlikka aytiladi. Ja-
 holat insoniyatning eng katta dushmani va yo-
 mon xulqlarning boshlig'idir. Maorifdan, fan
 va madaniyatdan mahrum xalq jaholat pan-
 jalari orasida xamir kabi ezilgandek, yomon
 xulqlardan o' z nafsining ham yoqasini bo' sha-
 tolmaydi.

* * *

Jaholat arbobi qay yerda bo'lsa ham, e'ti-
 borga loyiq bo'lish sharafidan mahrumdir.

Moddiy jihatdan qancha boy va mulkdor bo'lsa, ma'naviy jihatdan shuncha faqir va past hisoblanadi. Zero, jaholat eng qo'rqinchli faqir va muhtojlikdan dahshatliroq bir musibatdir.

* * *

Safohat deb, umri va molini buzuvchi va noshar'iy joylarga sarf qilmoqqa aytiladi. Safohat eng yomon xulqlardan sanalgan bir yomon sifatdirki, kishini umidsizlik va pushaymonga duchor qilmoqdan tashqari, shuhrat va e'tiborini yer bilan yakson etadi.

Safohat balosiga muhtalo kishilarning boshlariga shunday bir qora kunlar keladiki, «Oh, safohat, jonning ofati, molning balosi ekan-san», deb fig'on qilish foyda bermaydi. Afsuski, vujudimiz manbai bo'lgan yoxud haqiqiy onamiz bo'lgan Vatanimiz, ya'ni tuprog'imizni ozgina bahoga sotib, puchak pullar olganimiz-

ga o'xshash, osori atiqalarimiz evaziga soxta ashyolarga ega bo'lganimiz kabi, bisotimizdagi bor ilm-ma'rifatimiz, mol va sarvatimizni havoyi nafsimiz uchun «gardkam» urib, boy berib, ko'zimizga ziynatlik libosga o'ralgan fohisha xotin kabi jilvagar bo'lib ko'ringan safohat bozoridan buzuq va gunohishlarni sotib olamiz.

* * *

Safohat ofatijondur jahonda,
 Safohat bizdadur ushbu zamonda,
 Yuqumli bir marazdandur safohat,
 Yuqub ondin tug'ulur har falokat.
 Safohat mahv etar umring, hayoting,
 Umid etma safohatdan najoting.
 Qabohatdur, safolatdur safohat,
 Na «Hijron»lig', falokatdur safohat.

* * *

Ahmoq kishilarni bir ishda aqliy va naqliy dalillar bilan ko'ndirib bo'lmaydi, hamon "o'zbilarmonlik"laridan qaytmaydilar. Ax-

loq olimlari nazdida hamoqat jaholatdan yomonroqdir. Zeroki, johilda faqat bir jahl bor. Ammo ahmoqda bir necha aql sohiblarini aldaydigan yolg'on-yashiq so'zlar bo'ladiki, ko'p kishilarni aldab yo'ldan ozdiradilar.

* * *

Jaholatning davosi ilm bo'lgani kabi, hamoqatning dorisi aql va fikrdir. Inson o'z nafsig'a jabr etib bo'lsa ham, diqqat nazari bilan ibrat ko'zini ochmoq uchun sa'y va g'ayrat qilsa, ahmoqlik balosidan qutuladi. Tarbiyadan mahrum inson har doim falokat va hasrat tuzog'iga tutiladi.

* * *

Dorusi yo'q, dedi hukamolar,
hamoqat(n)ing,
Sud-u ziyonni bilmagay ablah qiyofating.
Ahmaq bilurmi, din ila millatni qadrini,
Ablah bilurmi, qiymati mehr-u
muhabbating.

* * *

Xasosat deb, tamagirlik va xorlikni bo‘yniga olib, dunyoga ortiqcha hirs qo‘ymoqqa aytiladi. Ochko‘zlik va tama‘girlikka ortiq darajada yuztuban ketgan baxil, qancha shon-u sharaf sohibi bo‘lsa ham, o‘z nafsining yoqasini faqirona bir tubanlik va xorlikdan qutqarolmaydi.

* * *

Xasislik birla yig‘gan mulk-u moling,
Hamachdek to‘plagan ashyo, manoling,
Lahad kirsang, qolur vorislaringg‘a,
Nechuk kechgay seni ul kunda holing?
Kitobingdan hisobni san berursan.
Xalos o‘lmak baidi ehtimoling.

* * *

Manmanlik johilona kibr-u g‘ururdan paydo bo‘ladigan eng yomon xulqlarning biridirki, u kishini har yerda umidsiz va uyatli qiladi.

Azozil kibr qildi, bo‘ldi shayton,
Takabburlik qilurmi oqil inson?

Tavozu' pasha qil, aslingni qil yod,
Vujuding xok erur, ey odamizod!

* * *

Adovat deb, birovga xusumat va dushmanlik qilmoqqa aytiladi. Adovatning vijdonni behuzur qiladigan eng yomon xulqlardan ekanini inson bilganida edi, hech qachon aziz jonini alamli azobga giriftor etmas edi.

* * *

Adovat balosi bizlarni netdi,
Adovat qilma, deb Haq bizga aytdi.
Zidlik qilduk, mol va davlatlar ketdi,
Moldan o'tub, oxir jonlarga yetdi.

* * *

Chaqimchilik buzuq axloqdan tug'iladigan yomon xulqlarning biridir. Chaqimchilik munofiqlik va buzuqlikning asosi bo'lgani uchun, bu yomon sifatni o'ziga odat qilgan kishilar xalq nazarida munofiq sifatida eslanadi-

lar. Chaqimchi va g'iybatchi kishilar daraxt ildiziga tushgan qurt kabi xalq orasida ittifoq va do'stlikning kovagini kemirib, millatning yashamog'i uchun lozim bo'lgan muhabbat daraxtini yemiradilar.

* * *

Chaqimchilar buzar ulfat hisorin,
 Nifoqa o'g'ratur millatni korin.
 Chaqimchi til yomon ajdar tilidan,
 Solur jong'a alamlik zahri morin.
 Yomon til ming tilim bo'lg'oni yaxshi,
 Sochar ummat aro kin-u niqorin.
 Yomon til sohibining dushmanidur,
 Yo'qotgay sha'n-u shavkat e'tiborin.

* * *

G'iybat deb, bir kishining kamchilik va nuqsonlarini orqasidan so'zlamog'ga aytiladi. G'iybat so'zlamog' harom bo'lgani kabi, uni eshitmog' ham haromdir. Kishi o'z nafsiga lazzat umidi bilan birovni g'iybat qilib, uning

go'shtini chaynamoq kabi gunoh hamda inson nomiga yarashmagan bir yaramas xulq egasiga aylanib qoladi.

* * *

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «G'iybatdan saqlaningiz, g'iybat zinodan ham yomonroqdir», deganlar.

Agar jurm-u gunoh bo'lsun desang oz,
Tilingni saqla g'iybatdan qish-u yoz.
Quloqqa paxta tiq, g'iybat eshitma,
Shikoyatchi kishiga bo'lma damsoz!

* * *

Haqorat deb, bir kishining nafsiga, iffatiga tegadigan so'zlar bilan obro' va e'tiborini tushurmoq niyatida yomon muomala qilmoqqa aytiladi. Haqorat tahqir qilingan kishining diliga o'rnashib, shunday yomon jarohatlarni ochadiki, vaqt topib o'ch olmaguncha tuzalmaydi.

Ko'p o'turma yomonning suhbatida,
 Pok bo'lsang, seni qilur iflos.
 Ko'r, nechuk oftob ravshandur,
 Xira qilsa bulut, ko'rub bo'lmas.

* * *

Qo'rqqoq kishilar vahima va xayol asiri bo'lib, bir ishni qilishga jasorat etolmaydilar. Qo'rqqoqlik eng yomon xulqlarning biridir. Chunki qo'rqqoq kishilarning so'zlariga ishonib bo'lmagani kabi, safarda ham hamroh bo'lmoq xatodir. Chunki yuraksiz kishilarda sabr va sabot, jur'at va matonat kabi yaxshi sifatlar bo'lmaydi.

* * *

Hasad deb, bir odamga janobi Haq tarafidan berilgan ne'mat va davlatning zavolini tilamoqqa aytiladi. G'iybat, bo'hton, birov haqida yomon fikr bildirmoq kabi yomon xulqlar hasaddan tug'iladi. Hasad yomon xulqlarning eng zararlisidir. Janobi Haq Qur'oni karimda: "Va min sharri haasidin izaa hasad",

deb hasad qiluvchining yomonligidan panoh so'ramoqni buyurgan.

* * *

Butun bo'lmas hasadning parcha noni,
Kuyar hosidni doim jism-u joni.
Hasadchi xohfaqir o'lsun va yo boy,
Hasad nori-la yongay ustixonni.
Ochar doim kuyub maqsuda hosid,
Chiqar tandan aziz ruhi ravoni.

* * *

Yolg'onchi kishilar kazzob deyiladi. Payg'ambarimiz: «Al-kazzobu la ummati — Yolg'onchi mening ummatimdan emas», deganlar. Janobi Haq Qur'oni karimda: «Yolg'onni iymoni yo'q kishilar so'zlaydilar», — deydi. Oqil va diyonatli kishilar yolg'on so'zlardan o'zlarining tillarini saqlamoqlari barobarida, avlodlarini ham yolg'onga odatlantirmay tarbiya qilmoqlari eng muqaddas insoniy vazifalaridir.

* * *

Agar qilsa kishi yolg'onga odat,
 Razolatda yashab chekg'ay nadomat.
 Xaloyiq ichra bo'lmas e'tibori,
 Tegar boshiga cho'q sangi malomat.

* * *

Nifoq deb, kishining oldida bir xil, orqasidan boshqa xil so'zlanadigan so'zga aytiladi. Bunday so'zlarni so'zlovchi ikkiyuzlama kishilarga esa munofiq deyiladi. Ba'zi hiylakor, ko'rnamak, yolg'onchi munofiqlar bo'ladi, shaxsiy manfaatlari uchun sizni qurbon qiladilar. Osh va noningizni yemoq uchun oldingizda izhori do'stlik va minnatdorlik qilib, orqangizdan sir-asroringizni dushmanlaringizga yetkazib, g'iybat va shikoyatingizni qilib, ulardan ham o'z nafsiga haq chiqaradi. Bunday munofiqlar do'stlik va ittifoqning dushmani bo'lganidan dunyoda izzat, oxiratda rohat yuzini ko'rmaydilar.

* * *

Munofiq yod o'lunsa ismi poking,
Jahon bo'lgay jahimi havlnoking.
Hayoting ranjish-u kulfatda barbod,
Tuzalmas to qiyomat bag'ri choking.

* * *

Tama' deb, birovdan bir narsa umidvor
bo'lmoqqa aytiladi. Tani salomat, kuch va
quvvatga ega kishilarga tama' qilmoq harom,
ojiz va notavon kishilarga mubohdir.
Bo'lmagil muhtaloyi duchor tama',
Aylar insonni xor-u zor tama'.

* * *

Zulm deb, birovni(ng) joniga yoki moliga
zarar yetkazmoqqa aytiladi. Janobi Haq yer
yuzidagi barcha insonlarni huquqda baro-
bar qilib yaratgandir. Mansab va davlatga,
kuch va quvvatga mag'rur bo'lib, birovning
haqiga tajovuz qilmoq zulmdir. Rasuli akram
nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam

afandimiz: «Ey, bandalar! Allohdan qoʻrqingiz! Allohning ismi bilan ont ichamanki, bir moʻmin bir moʻminga zulm qilsa, Alloh taolo qiyomat kunida u zolimdan oʻch oladi», deganlar.

* * *

Agar soʻz aql va hikmatga muvofiq boʻlub, oʻziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqadurgon boʻlmasa, asalarilar orasida gʻoʻngʻillab yurgan qovoqari kabi quruq gʻoʻngʻillamoq, faqat bosh ogʻrigʻidan boshqa bir narsa emasdir. Boshimizga keladurgon qattiq kulfatlarning koʻpi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun “koʻp oʻyla, oz soʻyla” demishlar.

* * *

Hurriyatni koʻrmoq va qoʻlga olmoq oson bir shaydur. Lekin qoʻlda ushlab turmoq, bu makkor mahbubni agʻyordan, dushmandan qoʻlda saqlamoq nihoyatda qiyindur.

* * *

Xarobotxonada yotsang, bizim-chun
kim qilur ta'mir,
Buzulsun, qadri ketsun, deb qilur
hamsoyamiz tadbir...

* * *

Yotarsan tobakay g'aflat quchog'inda,
uyon, millat,
Jaholat jomasin ustingdin irg'it, tur,
zamon, millat,
Ketib hamrohlar sen yo'lda qolmoqdin
o'ton, millat,
Tur, o'tmay vaqt noz uyqusidin, ko'pdur
ziyon, millat,
Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son, millat,
o'son, millat,
Topar san birla avloding omon, millat,
omon, millat...

* * *

Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son, millat,
o'son, millat,
Topar san birla avloding omon, millat,
omon, millat...

* * *

Asrimiz asri taraqqiy, bizda mag'ruri xayol,
Ittifoq-u ilmsizlik bizni qildi bemajol,
Oh, g'ofil millating uyqudin uyg'otmoq
mahol,
Og'lasun qon ko'zlarim millat g'amidin
bemalol,
Ittifoq-u ilm, Islom ahlini go'star jamol,
Tobakay hajringda bizlarni qilursan
poymol...

* * *

Ko'b zamondur ovrupolularg'a bo'ldik
oshno,
Jurmi ne bo'ldi, bizim zulmatda qoldi Osiyo,
Amriqo vahshiylari nuringdin oldilar ziyo,
Qoldimiz biz Amriqo, Oqyonussiyolardin
fano,

Ittifoq-u ilm, Islom ahlini go'star jamol,
Tobakay hajringda bizlarni qilursan
poymol...

* * *

...Qachon bizlardagi kin-u adovat mahv
o'lur, yo Rab,
Bahori tarbiyatda fayz olub, gulshan
kukur, yo Rab,
Adolat bog'iga gulhoiy hurriyat
to'lur, yo Rab,
Chiqib bulbul qafasdin yori dildorin
ko'rur, yo Rab,
Yasharmiz tobakay, Hijron,
chekilmasmizmi zulmatdin...

* * *

Zolimning o'zi zulma giriftor o'lur oxir,
Albatta bo'lur uy buzaning xonasi
vayron...

Bir kun bu xarob olami oboda qo'yub yuz,
Gullar ochilib, qilg'usi bulbullari javlon.

* * *

Kelur ulfat, adovat o'rtadin qalqur —
ketar bir kun,
Qaro kunlar ketib, o'rnig'a ravshanlik
yetar bir kun,
Adolat bog'ida gulhoyi tarbiyat
bitar bir kun,
Ochib g'uncha dahonin shodlig' izhor
etar bir kun,
O'lur olam guliston, qayg'u-kulfatlar
yotar bir kun,
Gulobi hurriyat atri musaffosin otar bir kun,
Dilim, g'am chekma ko'b, bir kun kelur
bedor o'lur olam,
Chiqib bulbullari chah-chahkukur,
gulzor o'lur olam.

* * *

...Ketib Islom elindin bog'i jannat
sarv-u ra'nosi...
Jahon bog'inda so'ldi kimsasiz millatni
lolasi...

...Sharaflik ummat erduk, ne uchun
 badnom o'lduk biz,
 Suxandon millat erduk, betil-u
 bekom o'lduk biz...
 ...Bilimsizlik tushurdi, yiqdi bizni
 qadr-u qimmatdin,
 Keyin qolduk, chekilduk har zamon
 ag'yor millatdin...
 Zamonning odatidur ilmsiz insonlari
 yutmak,
 Abas bir g'oyasiz dunyoyi dundin
 yaxshilik kutmak,
 Kerak bir maslak-u bir g'oya-u
 idyolni tutmak,
 Biza bir yo'lni ushlab, nuri maqsuda
 borib yetmak...

* * *

Havosi yaxshi uylarni yasab rohat
 yashar ag'yor,
 Bizimkilar zax uylarda churushkoniga
 diqqatman.

* * *

Shirkat aylab arbakashham bo'lmaduk,
Har kuni minglarcha so'm ko'nkoniki.
Nasya olib sut ichodur bizni xalq,
Maska, qaymoq fabriku bankoniki.

* * *

Biza g'amxona qildi bu Vatan tufrog'ini
holo,
Bo'laklarga maishat yo'llarin osona
do'ndurdi.

* * *

Subhidamda yuzlaridan mavj uran
shabnam emas,
Xor zulmindin to'kar ko'z yoshini
durdona gul.

* * *

Ey, adibo, yaxshi tadqiq aylangiz
yozmishlarim,
Satrlarda qora ermas, diyda
giryonim chiqar.
Sahfalarda satr ulanmush xat —
holimdur yozuq,
Har parishon jumladan holi
parishonim chiqar...

* * *

Qalam qarosidur ogoh dostonimdin,
Hazin qayg'um eshiting ul tarjumonimdin.
Nechun farahbo'layin, oh, beziyo ko'ruram,
Kelan zamonimi, Hijron, kechan
zamonimdin.

* * *

Ayo ey sohibi urfon! Vatan bog'inda
faryod et,

Otib tashla arodin eski odatlarni
 barbod et.
 Maorif-la funun tahsilina qil
 rahnamolig' san,
 Qorong'uda qolan millatni nuri ilma
 irshod et.
 Vatan mehri agar bo'lsa-dilingda
 ishq savdosi,
 Otil nuri maorifga o'zingni misli
 Farhod et!...

* * *

Ilmu donish yaxshi ziynatdur xotin-qiz
 ahlina,
 Qo'y qadam ilm uyina, tumor-u
 marjonni unut.

* * *

Kecha-kunduz qafasda, ohgul, deb
 aylayur faryod,

Omon bermas ango zolim qafas
ozor o' lur bulbul.
Taajjub, rahm qilmas, yetmayur faryodina
hech kim,
Bu Hijronlig' da doim g' am bilan g' amxor
o' lur bulbul.

* * *

Shavkati inson erur ilm-u adab,
E' tibor etmas anga naslu nasab.

E'TIROF

* * *

Avloniyning muallimlik faoliyati, ta'lim-tarbiya fikrlari jadidchilikning muhim bir qanoti amaliy ma'rifatchilikning yo'nalishi va xususiyatlarini belgilashga yordam bersa, she'riyati XX asr o'zbek milliy she'rining maydonga kelishi va tarixiy takomilini tayin etishda qimmatli materiallar beradi...

Avloniy erk va ozodlikni har narsadan baland tutarkan, unga olib boradigan birdan-bir yo'l deb ilm-ma'rifatni bildi. Shu sabab Vatani, xalqi uchun zarracha manfaat yetkazishni o'ylagan kishini ma'rifatga da'vat etdi. Ilm-fanni egallashga ozgina bo'lsin xalaqit berishi mumkin bo'lgan har qanday tartiblar, shu jumladan eski o'qitish usuli keskin tanqid qilindi...

Avloniy she'rlarini o'qir ekansiz, ko'z oldingizda XX asr boshidagi Turkiston manzaralari gavdalanadi. Shoir unga yuksakdan, dunyo xalqlari hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar, Ovrupodagi taraqqiyot nuqtai nazaridan razm soladi...

Avloniyning muallimlik faoliyati, ta'lim-tarbiya fikrlari, jadidchilikning muhim bir qanoti, amaliy ma'rifatchilikning yo'nalishi va xususiyatlarini belgilashga yordam bersa, she'riyati XX asr o'zbek milliy she'rining maydonga kelishi va tarixiy takomilini tayin etishda qimmatli materiallar beradi.

Begali Qosimov

* * *

Toshkentda ilk bor ochilgan "Jamiyati xayriya" ning asoschilari bo'ldilar... 1913-yilda ular "Jamiyati xayriya" zaminida Toshkentning ma'rifatparvar ziyolilari, boylari bilan birgalikda "Turon" jamiyatini vujudga keltirdilar.

Ulug'bek Dolimov

* * *

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida uning 1913-yilda yozgan "Tur-

kiy guliston yoxud axloq” asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o‘rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir...

Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida pedagogikani “Pedagogiya”, ya’ni “bola tarbiyasining fani demakdir”, deb ta’riflaydi. Tabiiy, bunday ta’rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganidan, bu sohada kuchli va keng ma’lumotga ega bo‘lganidan dalolat beradi...

Abdulla Avloniy o‘z davrida kishilarda, yosh avlodda chin insoniy axloqiy xislatlar tarbiyalashni istadi. U ta’lim va tarbiya, ilm va ma’rifat olish yo‘li bilan vatandoshlarining baxtli va saodatli bo‘lishini orzu qildi.

M. Maxsumov

* * *

Abdulla Avloniyning “Shuhrat” gazetasi-da jadidlarning fikr va g‘oyalari yorqin aks etgan. Uning sahifalarida maktab va madrasa-

larni isloh qilish, turmushda uchraydigan salbiy hodisalarga barham berish, ilm-fanni tashviq va targ'ib etish, qadimchilarni, ya'ni eskilik tarafdorlari bo'lgan ulamolarni tanqid qilish, ichki Rossiyadagi, qolaversa, xorijdagi dindosh va qavmdoshlar bilan munosabat o'rnatish va o'zaro yordamda bo'lish, milliy ittifoq va hamjihatlikka erishish, jamiyati xayriyalar tuzishga muvaffaq bo'lish kabi g'oyalar o'z ifodasini topdi.

Boybo'ta Do'stqorayev

* * *

Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi?", "Pinak" bir pardali komediyalari va "Biz va Siz" to'rt pardali fojeasi jadid dramaturgiyasining ilk davriga mansub pyesalar ro'yxatidan o'rin oladi.

Shuhrat Rizayev

* * *

O'zbek jadid allomalarining hayot yo'li, ijtimoiy faoliyati ibratli, so'zlari hikmatli. Millat va Vatan, ma'rifat va ma'naviyat ularning dardi, qayg'usi, amali va a'moli edi. Ular shu el-yurt istiqboli uchun dard chekdi, qayg'urdi, g'amga botdi, o'yga toldi. Ular yangi usul ta'lim maktablari ochib, farzandlarining savodli qildi, fikrini o'stirdi, dunyoni tanitdi. Ular teatrda tamoshalar qo'yib, ijtimoiy, maishiy muammolarni sahnaga ko'chirdi va o'sha "ibratxona" orqali olamga ibrat nazari bilan qarashni tashviq qildi. Badiiy asarlarida kundalik turmush muammolarining maishiy manzaralarini aks ettirdi. Shunday ishlar bilan mashg'ul bo'lgan mo'tabar jadid allomalar qatorida Abdulla Avloniy ham bor.

Bahodir Karimov

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Abdulla Avloniy asarlari ro'yxati

1. Abdulla Avloniy. Toshkent tongi (Nashrga tayyorlovchi B. Qosimov). — Toshkent: G'afur G'ulom nomi-dagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
2. Abdulla Avloniy. Afg'on sayohati. "Sharq yulduzi" jurnali, 1990-yil, 7-son.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq (Nashrga tayyorlovchi M. Maxsumov). — Toshkent: O'qituvchi, 1992.
4. Abdulla Avloniy. O'son, millat. — T.: Sharq, 1993.
5. Abdulla Avloniy. Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi Islom. — Toshkent: Fan, 1994.
6. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Ikki jild-li (Nashrga tayyorlovchi B. Qosimov). — Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
7. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq (Ho-zirgi o'zbek tiliga muvofiqlashtiruvchi O. Oltinbek). — Toshkent: Sano-standart, 2012.

Abdulla Avloniy hayoti va ijodiga oid asarlar

1. Qosimov B. Abdulla Avloniy. — Toshkent, 1979.
2. Qosimov B. Milliy uygʻonish. — Toshkent: Maʼnaviyat, 2002.
3. Qosimov B. Uygʻongan millat maʼrifati. — Toshkent: Maʼnaviyat, 2011.
4. Qosimov B., Dolimov U. Maʼrifat dargʻalari. — Toshkent: Oʻqituvchi, 1990.
5. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. — Toshkent: Universitet, 2006.
6. Rizayev Sh. Jadid dramasi. — Toshkent: Sharq, 1997.
7. Doʻstqorayev B. Oʻzbekiston jurnalistikasi tarixi. — Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
8. Barakayev R. Oʻzbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. — Toshkent: Fan, 2004.
9. Karim, Bahodir. Avloniy ziyosi // “Til va adabiyot taʼlimi” jurnali, 2020-yil, 7-son.
10. Saidov U. Yevropa maʼrifatchiligi va Milliy uygʻonish. — Toshkent: Akademiya, 2004.
11. Said, Ziyo. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1974.

12. Zunnunov A. va boshq. Pedagogika tarixi. — Toshkent: Sharq, 2002.

13. Yo'ldoshev J., Hasanova S. Jadid tarbiyashunosligi asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 1994.

14. Oltinbek, O. Milliy axloq kitobi // Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Hozirgi o'zbek tilidagi bayoni. — Toshkent: Sano-standart, 2012.

MUNDARIJA

Adib hayoti.....	4
Ijodi.....	13
Hikmatli soʻzlari.....	81
Eʼtirof.....	145
Foydalanilgan adabiyotlar.....	151

Ilmiy-ommabop nashr

**ABDULLA
AVLONIY**

Muharrir Saidmurod Xolbekov
Badiiy muharrir Muhammadxon Yusupov
Texnik muharrir Dilmurod Jalilov
Sahifalovchi Axtam Ro'zimurotov
Musahhih Nigora G'aniyeva

Nashriyot litsenziyasi AI № 315. 24.11.2017.

2022-yil 20-mayda bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 $\frac{1}{32}$. AcademyUz garniturası.

Ofset bosma. 4,5 shartli bosma taboq. 5,25 nashr tabog'i.

Adadi 23000 nusxa. 02-raqamli buyurtma.

Bahosi shartnoma asosida

YOSHLAR NASHRIYOT UYI.

Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 11-uy.

“HILOL NASHR” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Chilonzor tumani, So'galli Ota k., 5-uy.



YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI



UZBEKISTON
YOSHLAR
ITTIFOQI

TARBIYA BIZ UCHUN
YO HAYOT - YO MAMOT,
YO NAJOT - YO HALOKAT,
YO SAODAT - YO FALOKAT
MASALASIDIR...

ABDULLA
Asloniy

ISBN: 978-9943-6682-1-8



9 789943 668218